

O'zbekiston respublikasi xalq ta'lim vazirligi
Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat Pedagogika
Instituti.

Olimova Guliston Yangiboy qizi

Bitiruv malakaviy ishi

HUQUQ VA AXLOQNING DIALEKTIK BOG'LIQLIGI VA
UNI O'QITISH METODIKASI

Ilmiy rahbar:

p.f.n., dotsent T. Qudaybergenova

Nukus - 2017

Bitiruvchi talaba Olimova Guliston Yangiboy qizining "Huquq va axloqning dialektik bog'liqligi va uni o'qitish metodikasi" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi " Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" kafedrasining 2017- yili «___»

_____ kungi ____- sonli bayonnomasi asosida davlat attestatsiya komissiyasiga himoya qilishga tavsiya qilindi.

"Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi"

kafedrasi mudiri:

A.Embergenov

Bitiruvchi talaba Olimova Guliston Yangiboy qizining "Huquq va axloqning dialektik bog'liqligi va uni o'qitish metodikasi " mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi 2017- yili «___» _____ kungi institut rektorining ____ - sonli buyrug'i bilan davlat attestatsiya komissiyasiga himoyaga yuborildi.

Davlat attestatsiya komissiyasi qarori bilan Olimova Guliston Yangiboy qizining bitiruv malakaviy ishiga _____ ball qoyildi.

HUQUQ VA AXLOQNING DIALEKTIK BOG'LIQLIGI VA UNI O'QITISH METODIKASI

REJA:

KIRISH

I-BOB. HUQUQ VA AXLOQ KATEGORIYALARI , ULARNING O'ZARO BOG'LIQLIGI

- 1.1. Axloq tushunchasi. Axloq normalarining jamiyat hayotidagi o'rni.
- 1.2. Huquq tushunchasi va uning mohiyati: belgilari, funktsiyalari, tuzilishi, tizimi, manbaalari.
- 1.3. Axloq va huquq o'rtasidagi farqlar va o'zaro bog'liqlik.

II - BOB. HUQUQIY – AXLOQIY TA'LIM – TARBIYA VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

2. 1. Huquqiy va axloqiy ta'lim –tarbiya, uning mohiyati, o'qitish metodlari.
2. 2. Huquqiy – axloqiy talim –tarbiyani takomillashtirish masalalari

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

ILOVALAR

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: Mamlakatimiz istiqbolga erishgandan so'ng o'tgan 26 yil vaqt davomida iqtisodiyot, siyosat, madaniyat va marifat sohalarida tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan tub o'zgarishlar amalga oshirildi va muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda, demokratik huquqiy davlat, adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etishda milliy o'zlikni anglash va qadriyatlarimizni tiklashda, fuqarolar ongida, ularning huquqiy axloqiy tarbiyasida tub o'zgarishlarni talab etadigan huquqiy axloqiy tarbiya jamiyat taraqqiyotining muhim bir bo'lagini tashkil etadi.

Mustaqilligimiz sharofati bilan o'z erkimizni qo'lga kiritdik. Erkin fuqarolik jamiyatini barpo etishni maqsad qilib qo'ygan 1 - yurtboshimiz I.A.Karimov mamlakatda huquqiy axloqiy tarbiyani takomillashtirish borasida demokratik islohotlarning asoschisidir.

Prezidentimizning 1997-yil 25-iyunda «Huquqiy tarbiyani yaxshilash, aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish, huquqshunos kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, jamoatchilik fikrini o'rganish ishini yaxshilash haqida» gi farmoniga ko'ra, bu boradagi olib borilayotgan ishlar davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri etib belgilandi.

Tanlangan mavzuning dolzarbligi quyidagicha belgilanadi:

- jamiyat va davlat taraqqiyotining hozirgi holati huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining huquqiy axloqiy tarbiyasi va huquqiy bilimlarini har tomonlama oshirishni talab etmoqda. Shu talabdan kelib chiqqan holda, huquqiy axloqiy tarbiya tizimini shakllantirish va uni takomillashtirish masalalarini ilmiy tadqiq etish zarur.

Shuning uchun ham huquq va axloqning dialektik bog'liqligi va uni o'qitish metodikasini o'rganish ishimizning dolzarbligini belgilaydi.

Bitiruv ishining maqsadi va vazifalari: Huquq va axloqning dialektik bog'liqligi va uni o'qitish metodikasiga doir ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Bitiruv ishining vazifalari:

- Huquq va axloqning dialektik bog'liqligi va uni o'qitish metodikasini ilmiy tahlil qilish;
- Huquq va axloqning dialektik bog'liqligi va uni o'qitish metodikasini o'rganish;
- Huquq va axloqning dialektik bog'liqligi va uni o'qitish metodikasini aniqlash;
- Huquq va axloqning dialektik bog'liqligi va uni o'qitish metodikasini ilmiy tahlil qilish va ular bo'yicha aniq taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqish;

Bitiruv ishining ilmiy yangiligi: Ushbu bitiruv ishida quyidagi yangiliklar o'z aksini topdi:

- Huquqiy axloqiy tarbiya tushunchasiga bugungi kun nuqtai-nazaridan qaralgan holda, uning o'ziga xos tomonlari milliy jihatdan asoslab berildi;
- keyingi yillarda huquqiy axloqiy ta'lim – tarbiyaga oid qabul qilingan qonunlar va o'zgarishlar tahlil qilindi;
- Huquqiy axloqiy ta'lim – tarbiyaga oid dars va tarbiyaviy soat ishlanmalari ishlab chiqildi.

Bitiruv ishining nazariy va amaliy ahamiyati. Bitiruv ishi natijalaridan ilmiy tadqiqot ishlari, yuridik va pedagogik ta'lim tizimidagi o'quv jarayonida foydalanish mumkin.

Bitiruv ishining tuzilishi. Bitiruv ishi Kirish, ikki bob, beshta paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar tizimidan iborat.

I-BOB. HUQUQ VA AXLOQ KATEGORIYALARI , ULARNING O'ZARO BOG'LIQLIGI

1.1. Axloq tushunchasi. Axloq normalarining jamiyat hayotidagi o'rni.

Axloq (*arab. xulqning ko'pligi; lot. moralis- hulq-atvor*) - ijtimoiy ong shakllaridan biri. Axloq-kishilarning tarixan tarkib topgan xulq - atvori, yurish turishi, ijtimoiy va shaxsiy hayotdagi o'zaro, shuningdek, jamiyatga bo'lgan munosabatlarini tartibga solib turuvchi barqaror, muayyan norma va qoidalar yig'indisi. Axloq - butun boshliq jamiyat a'zolari, millat, xalq, shaxs amal qiladigan ijtimoiy tartib-qoida bo'lib, ushbu tartib-qoidalar yordamida inson hatti-harakati tartibga solinadi, ya'ni boshqariladi. Murakkab ijtimoiy tartib intizom majmuasi bo'lgan axloq shaxsning ruhiy ma'naviy faoliyati bo'lib, uning kundalik hatti-harakatini tartibga soladi va turli axloqiy prinsiplarda, normalarda (burch, ma'suliyat, qadr-qimmat, vijdon va h.), munosabatlarda, baholarda, ideallarda namoyon bo'ladi.

Axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, jamiyat taraqqiyotining ilk bosqichida paydo bo'lgan. Uning paydo bo'lishida kishilarning mehnat faoliyatlari, iqtisodiy munosabatlari muhim rol o'ynaydi. Mehnat tufayli insonning aqliy, axloqiy va boshqa faoliyati shakllana boshlaydi. Falsafiy – axloqiy fikrlar vujudga kelgandan boshlab hozirga kunga qadar hayot yuzaga keltirgan turli tuman masalalar, kishilarni qiziqtirib kelayotgan muammolar doimo uning diqqat markazida turadi. Shuning uchun axloqning kelib chiqishida hayot tushunchasi muhim rol o'ynaydi. Hayot eng avvalo inson axloqining manbai va xazinasidir.

Qadimgi ona sayyoramizdagi hayot odatda uch olamdan iborat, deb qabul qilingan. Bular – nabotot, hayvonot va bashariyat olami, ularning o'zaro munosabatlari zaminimizdagi hayotning asosiy omili hisoblanadi. Bu uch olam o'zaro dialektik aloqadorlikda bo'lib faoliyat ko'rsatadi. O'simliklar dunyosi ham paydo bo'ladi, rivojlanadi, singan shoxlari o'rnini sirach chiqarib davolaydi – muxofaza qiladi, urugini qoldirib, bir kun quriydi.

Hayvonot olami ham shunday xususiyatlar bilan birgalikda sezish aʼzolari va qobiliyati hamda muayyan darajada idrok etish xislatiga ega. Insonda esa bulardan tashqari muxofaza qilish, fikrlash qobiliyati va uyat hissi – aqli bor. Uni Imom Gazzoliy oltinchi sezgi yoki ikkinchi yurak, yurak ichidagi yurak deb ataydi. Ana shu aql ixtiyor erkinligini, ixtiyor erkinligi esa axloqni taqozo etadi. Axloq jamiyatda kishilarning hatti-harakatlarini, xulq-atvorlarini tartibga soluvchi extiyojlar mavjud boʻlganligi uchun kelib chiqdi.

Axloqning kelib chiqishida ijtimoiy muhit yaʼni ijtimoiy hayot, ijtimoiy omillar boʻlishi zarur.

Insonning ongi, uning barcha aqliy va ruhiy qobiliyatlari, uning jamiyatdagi hayoti, faoliyati davomida tarkib topadi va maʼlum ijtimoiy shart-sharoitlar bilan taqozo qilinadi. Odam bolasi faqat jamiyatdagina ijtimoiy muhit taʼsirida ijtimoiy ongli zot – insonga aylanadi, shaxs darajasiga koʻtariladi.

Ijtimoiy taraqqiyot bilan birga rivojlanib borgan ong insonda tafakkur qonunlari, axloq, huquq normalari, diniy, ilmiy, estetik va etik qarashlarining shakllanishiga asos boʻladi. Ong oʻzining paydo boʻlgan paytidan boshlab insonning hatti-harakatini, aql-idroqini, fikrini shakllantiradi, kishining muayyan hayot tarzini, madaniyat va maʼnaviyatning egasi (subeʼkti) qilib yetishtiradi.

Demak, ong odamni hayvonot dunyosidan ajratgan ijtimoiy – tarixiy hodisadir.

Demak, axloqning kelib chiqishi, inson faoliyati bilan bevosita bogʻliq boʻlib, insonning zaruriyatidan kelib chiqqan ijtimoiy tasodifiyatdir. Insoning hatti-harakati, yurish-turish normalari, munosabatlarini tartibga solib turuvchi omil axloqdir.

Axloq –ijtimoiy borliqning taʼsirchan omillaridan biridir. Davr oʻzgara borgan sari har qanday hodisa kabi axloq ham oʻzgaradi, rivojlanib, takomillashib, maʼnaviy madaniyatning koʻrinishlaridan biriga aylanib boradi. *Odob*–(arab.adab soʻzining koʻpligi)-xulq –atvor, jamiyatda eʼtirof etilgan xulq meʼyori shaxs maʼnaviy hayotining tashqi jihatini ifodalaydi va u bilan munosabatda namoyon boʻladi. Odob asosida axloqiy tamoyillar, meʼyorlar , tarbiyalanganliklar darajasi

va estetik ideal talablari yotadi. Odob kishining jamoat orasida o'zini qanday tutishi, odamlar bilan qay yusinda muomala qilishi, o'z turmushi, bo'sh vaqtini qanday tashkil etish, inson tashqi qiyofasi qanday bo'lishi lozimligiga mansub qoidalar (masalan: or-nomus, sharm-hayo, iffat, kamtarlik, xushmuomalalikni o'z ichiga oladi). Odob birinchi navbatda oila muhitida, qolaversa, ta'lim-tarbiya ijtimoiy foydali mehnat, amaliy tajriba jarayonida shakllanadi.

Xulq – Insonning ma'naviy qiyofasi va faoliyatiga xos bo'lgan axloqiy tushuncha. Shaxs hayot tarzining o'ziga xosligini, uning faoliyatida axloqiy qadriyatlar tamoyillari nechog'li o'zlashtirilganligi, odob me'yorlari qay tarzda amaliy ahamiyat kasb etganligini va aksincha, odob - axloqqa zid bo'lgan xislatlar mavjudligini ko'rsatib turadi. Xulq shaxs axloqiy faoliyatining o'lchami, ko'rsatgichidir. Shaxsning yaxshi axloqiy fazilatlar bilan sug'orilgan faoliyat tarzi «yaxshi xulq» namunasi bo'lib xizmat qilsa, faoliyatida axloqiy qadriyatlarga zid amallarning namoyon bo'lishi esa, «yomon Xulq» ga misol bo'la oladi. Inson Xulqi uning ma'naviy- axloqiy dunyosining o'ziga xos ko'rsatgichi hisoblanadi. Shuningdek, ma'naviy- ruhiy kechinmalarning inson Xulqi orqali namoyon bo'lishi ko'p jihatdan mabjud shaxs ta'sirida bo'lgan muhitning o'ziga xos tarzda shakllanishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Sahaxs ma'naviy - ruhiy kechinmalari ayni vaqtda uning xulqi orqali amaliy ahamiyat kasb etib, o'ziga xos bo'lgan faoliyat me'yorlarini shakllantiradi.

Axloq - barcha odamlar uchun birdek taaluqli hisoblangan, shaxs hayotidagi hamma sohalarda o'ziga va o'zgalarga nisbatan qo'yiladigan ma'naviy – ijtimoiy talablar hamda ehtiyojlarning munosabatlar shaklidagi ko'rinishidan iborat bo'lgan, insonga berilgan ixtiyor erkinligining hatti-harakatlar jarayonida ichki iroda kuchi tomonidan oqilona cheklanishini taqozo etuvchi ma'naviy hodisa. Axloqning mohiyatida asosiy e'tibor kishilarning jamiyatdagi hatti – harakatlari,

yurish - turishlari, yashash normalari, printsiplari, qoidalari, ularning o'zaro munosabatlari kabilarga qaratiladi.

Axloq - odob to'g'risidagi bilimlarni o'zlashtirish, yaxshilik, ezgulikning mohiyatini tushunish, insoniy burch talablarini bajarish gumanistik ideal talablariga zid bo'lmaydi, aksincha har bir kishining insoniy burchi, vijdoniga mos tushadi. Axloq- odob to'g'risidagi bilimlar, tasavvurlar asta-sekin insonning dunyoqarashiga ta'sir o'tkazadi.

Inson dunyoqarashida axloq, odob, xulq to'g'risidagi bilimlarning, ayniqsa gumanistik ideallarning ustuvorlik qilishi, uning nafaqat hulq-atvori, balki hatti - harakatining mazmuni va shaklini o'zgartiradi.

Axloq- odob prinsiplari va normalarining iymon - e'tiqodga aylanishi aksariyat hollarda shaxs bilan jamiyat manfaatining uyg'unlashuviga bog'liq ekanligi sir emas. Agar shaxs bilan jamiyat manfaati uyg'unlashmasa insonning kundalik ehtiyoji bilan o'sha ehtiyojning vujudga kelishiga turtki bergan motiv o'rtasidagi nomutanosiblik borgan sari kuchayib boraveradi. Natijada, inson hatti - harakatida axloqiy prinsip va normalardan begonalashuv boshlanadi. Inson erkinligi nazoratdan chiqib ketadi. Axloqiy prinsip va normalardan begonalashuv axloqsizlikning yangi ko'rinishi - axloqiy nigilizmning shakllanishiga sabab bo'ladi. Bunday vaziyatda inson axloqiy faoliyatini boshqarishda ixtiyoriylikdan ko'ra majburiylik katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Axloq universal hodisa - uning qoidalari, hamisha hamma uchun umumiy talab hisoblanadi. Xulqiy fazilatlar, fe'l-atvor xislatlari o'zgarib borishi mumkin, lekin ular axloq qonuniyatlari doirasida o'zgarishi kerak. Shu ma'noda bugungii jamiyatimizning ma'naviy - axloqiy muhiti va uning axloqiy darajasi talab darajasida, unga milliylik va umuminsoniylik xos. Buning sababi shundaki, jamiyatimizning ahloqiy muhiti qadimgi tarixiy tajriba hosilasidir. Bizda kattaga hurmat, kichikka izzat, oilaga sadoqat, muhtojga sahovat, o'ziga talabchanlik va Vatanga nisbatan fidoyilik ahloqiy madaniyat darajasiga ko'tarilgan. Bu

qadriyatlarsiz bizning axloqiy ongimiz g'arib bo'lib qoladi. Bu konservativ hodisa emas, aksincha, milliy o'ziga xoslik va mental xarakterga egadir.

Axloqning burch, vijdon, or- nomus kabi bir qator kategoriyalari mavjud. Axloq hodisa sifatida ijtimoiy faoliyatini tartibga solishning boshqa shakllaridan, ya'ni huquq, ishlab chiqarish - ma'muriy nizomlardan, davlat dekretlaridan, xalq an'analaridan va hokozolar o'z talablarining asoslanishi va amalgam oshirilishi bilan farq qiladi. Axloqda ijtimoiy zaruriyat, ehtiyoj, jamiyatning manfaatlari aks etadi, hamma qabul qilgan ommaviy namuna, odat, rasm - taomil jamoatchilik fikri bilan mustahkamlangan talablar va baholar tarzida ifodalanadi. Shuning uchun, Axloq talablari hammaga bab - baravar joriy etilmagan burch, majburiyat tarzida namoyon bo'ladi. Bu talablar nisbatan barqaror harakterga ega. Ijtimoiy hayotning turli sohalarida Axloqning o'ziga xos norma - qoidalari (mehnat axloqi, xizmat ko'rsatish axloqi, kasbiy, tadbirkorlik, diplomatiya etikasi, maishiy turmush, oila axloqi) ifodalanadi va bu qoida-normalar axloqning yagona asosga ega bo'lgan nisbatan mustaqil sohalarini tashkil etadi. Axloq moddiy va ma'naviy madaniyatning taraqqiyoti jarayonida rivojlanadi. Axloq jamiyatda turli funksiyalarni bajaradi. Ular orasida quyidagilar eng muhim hisoblanadi:

- kishilar orasidagi turli munosabatlarni muvofiqlashtirish;
- kishilar faoliyatining insonparvar qadriyatlari va mo'ljallarini belgilab berish;
- shaxsni ijtimoiylashtirish.

Ushbu funktsiyalarni bajarar ekan, axloq zaruriylik, aqlga muvofiqlik va umuminsoniylik namunalarini namoyish etadi. Kishilar faoliyatini muvofiqlashtirar ekan, axloq ularni insonparvar, ezgu, halol adolatli munosabatlarga undaydi.

Axloqning o'ziga xos tuzilmasi, omillari, unsurlari mavjud. Axloq tuzilmasi uch omil – asosdan iborat bo'lib, bular: axloqiy ong, axloqiy hissiyot va axloqiy hatti - harakatlardir. Ana shu uch omilning tuzilmadagi o'rni, mavqei masalasida turli xil qarashlar mavjud. Ba'zi axloqshunoslar axloqiy ong, ba'zilar axloqiy hissiyotning o'zini asosiy unsur deb talqin etadilar.

Bu uch unsur bir-biri bilan dialektik aloqadorlikdadir. Axloqiy hissiyot bular ichida muhim rol o'ynaydi. Axloqiy hissiyot axloqiy anglash uchun material vazifasini bajaradi. Ba'zida bu jarayon munosabat tarzida namoyon bo'ladi. Insonning axloqiy hayoti, uning axloqiy tajribalari, axloqiy faoliyatlari ana shu uch omil asosida shakllanadi. Axloqiy kodekslar, me'yorlar va tamoyillar ana shu uch omil asosida ro'yobga chiqadi va ularga asoslanadi.

Ba'zan bu uch omil o'rtasida nomutanosiblik paydo bo'ladi. Til bilan dil o'rtasida kelishmovchiliklar kelib chiqadi. Ish bilan so'z birligi o'rtasida ziddiyatlar paydo bo'ladi.

Axloq eng avvalo, umuminsoniy an'anaviy hodisa bo'lib kelgan. Asosiy axloqiy qadriyatlar, mushtarak axloqiy tushunchalar, axloqiy tamoyil va me'yorlar barcha mintaqalar hamda millatlar uchun bir xil ma'no kasb etadi. Chunonchi, muhabbat, ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, vijdon, burch, insonparvarlik, odamiylik, baxt, to'g'rilik, rostgo'ylik, saxiylik va baxillik singari fazilat hamda illatlar tom ma'noda umuminsoniy hodisadir.

Axloqda, umuminsoniylik jihatlaridan tashqari, mintaqaviy, milliylik xususiyatlari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mintaqaviylik va milliylik xususiyatlari, uning ko'rinishlar xulqiy hatti-harakatlar, odob va etikada yaqqol ko'zga tashlanadi. Musulmon mintaqasida dasturxon ustida bosh kiyimsiz o'tirish beodoblik hisoblangan. Bulardan tashqari gigienik – ozodalik nuqtai nazaridan ham ahamiyati bor: ovqatlanish paytida ro'molsiz yoki do'ppisiz erkak boshidan soch tolasi, qazg'oq, chang-gard taomga yoki dasturxonga tushishi mumkin. Nasroniy mintaqasida esa aksincha, dasturxon ustida bosh kiyimni yechmaslik Xudo in'om etgan taom va dasturxonga hurmatsizlik hisoblanadi. Yoki amirikalik yigit o'z stolida o'tirib, oyoqlarini kuldon va ichimlik ashyolari turgan stolchaga chalishtirib tashlab orom oladi va uning uchun bu tabiiy hol hisoblanadi.

O'zbek uchun stolga yoki xontaxtaga oyoq qo'yib o'tirish – o'ta odobsizlik hisoblanadi. G'arb va Sharq mintaqalari odobida ayrim farqlar mavjud bo'lib, G'arbda huquqning axloqdan, Sharqda axloqning huquqdan ustuvorligi masalasi

kelib chiqqan. Garb yoshlari balogatga yetgach, ota-onaga teng huquqli fuqarolar sifatida munosabat qiladi, o'zining qarshi fikrlarini to'ppa- to'g'ri, ota yo onasining yuziga tik qarab bayon qiladi va buni inson huquqlaridan, shaxs erkinligidan foydalanish deb biladi.

Sharq yoshlari, masalan, yapon yoki o'zbek ota-onaga tik gapirishni, to'g'ridan - to'g'ri qarshi chiqishni an'anaviy axloqiy qoidalarining oyoq osti qilinishi deb tushunadi, padari yoki validasi ko'ziga qaramay muloyim, o'z fikrini tovush ko'tarmay aytishini, ba'zan esa sukunat saqlashni afzal biladi. Ularga bo'yso'nishni burch sifatida olib qaraydi. Sharqona etiket odobi, qonun – qoidalarda insoniylik va mehr-oqibat tuyg'ulari mustahkam ildizga egadir.

Axloq - kishilarning bir–biriga oilaga, vatanga, jamiyatga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladigan hatti – harakatlar yig'indisidir.

Axloq normalari –yaxshilik, yovuzlik, vijdon, sha'n, qadr – qimmat , adolat va nohaqlik, burch va mas'uliyat, baxt haqidagi axloqiy tushunchalarga muvofiq ravishda jamiyatda o'rnatilgan xulq – atvor qoidalaridir. Axloqiy tushunchalar o'zining majmuasiga muvofiq keng qirrali hisoblanadi. Masalan:

Yaxshilik bu– dil ravshanligi va yurak pokizaligini namoyon etuvchi insoniy fazilat. Yaxshilik ishonch, mehr – oqibat kabi odob–axloq sifatlari bilan chambarchas bog'langan. Yaxshilik hamisha odamlarga yaxshilik qilish, ularning og'irini engil qilish, vatan mustaqilligi va farovonligi uchun halol mehnat qilish, o'z ota – onasiga mehr oqibatli bo'lish demakdir.

Vijdon kishining hatti – harakatiga o'zining munosabatini, kishining o'z xulq – odobi uchun manaviy, qalban mas'uliyat hissini ifodalaydi. Vijdon har bir insonning qilgan ishlari uchun o'z qalbi oldida xolisona javob berishidir.

Sha'n tushunchasi – shaxsga jamiyat beradigan ijtimoiy bahoni belgilovchi va shaxsiy qadr qimmatni ifoda qiluvchi categoryadir , har bir insonning avvalo, yoshlarning ona – vatan, o'z xalqi, prezidenti, ota – onasining or – nomusini saqlash uchun butun faoliyatini, kerak bo'lsa jonini fido qilishi – uning sha'nini belgilab beradi.

Baxt bu – insonning orzu istaklari, maqsadlariga etishib yashashidir. Baxt har bir insonning o'zi istaganicha hayot kechirishi demakdir. Lekin hayotda cheksiz narsa bo'lmaganidek, to'la baxtli bo'lish mumkin emas. Shuning uchun baxt tushunchasi, juda oliy ne'mat hisoblanadi. Baxtga erishish uchun har bir inson o'zi kurashishi, halol mehnat qilishi kerak. Har kim o'z hayotini Vatanining, vatandoshlarining baxtli hayotga erishishi uchun sarflashi zarur.

Adolat - tushunchasi o'zida poklik, to'g'rilik, haqiqat tushunchalarini mujassamlashtiradi. Insoniyat yaratilgandan beri adolatni qadrlab yashagan. Adolat bo'lgan joy gullab yashnagan, xalq erkin bo'lgan. Adolatparvarlik insondagi o'tkir aql, sof mulohaza, toza ko'ngil, oliyjanob va mard ekanligini ko'rsatuvchi dalildir.

Umuman axloq kategoriyalari inson yurish turishiga baho beradi, uni jamiyatda mavjud ko'pchilik ma'qullagan hatti harakatlarga boshlaydi.

Demak, axloq – ijtimoiy ong shakllaridan biri, shaxsning manaviy hayot kechirishi usuli, jamiyat taraqqiyotining manaviy vositalaridan biri. Axloq, axloqiy ong va axloqiy munosabatni o'z ichiga oladi. Insonning dunyoga va o'z – o'ziga nisbatan munosabati axloqiy ong sohasida rivojlanadi. Bu munosabat kishilarning xulq atvori, urf – odatlari, xarakteri, etiqodlariga yaxshilik va yomonlik nuqtai – nazaridan baho berilishida ifodalaniladi.

Muhabbat va nafrat- axloqshunoslikda juft kategoriya (tushuncha) bo'lib hisoblanadi. Muhabbat bosh mezoniy tushuncha bo'lib, barcha asosiy tushuncha va tamoyillarga ta'sir qiladi. Muhabbat me'yorlar, an'analar, qonunlarga bo'ysunmaydi. Lekin, yuksak axloqiylik ifodasi tarzida insonga ulkan mas'uliyat yuklaydi, uni jasoratga chorlaydi. Muhabbat – insonni tashqi va transtsendental olam bilan bog'laydigan, uni yolgizlikdan olib chiqadigan buyuk kuch. Muhabbatning obe'kti go'zallikdir. Insonning ona tabiatga, yoriga, ota-onasiga, Vataniga ... bo'lgan muhabbatni... Inson o'zi o'zgaga aylanganida, o'zgani o'ziga aylantira olganida haqiqiy muhabbat egasi hisoblanadi. Muhabbat inson axloqiy hayotining cho'qqisi, komillik belgisidir. Haqiqiy muhabbat g'oyalari yoshlar tomonidan doimiy axloqiy ideal tarzida qabul qilinadi: Farhod va Shirin, Romeo

va Juletta, Otabek va Kumush va hokazolar. Demak, muhabbatni shaxs erkinligining axloqiy zarurat sifatidagi o'ziga xos ko'rinishi, baxtga erishuvning asosiy omili deyish mumkin. Muhabbat - oliy tuyg'u, shu ma'noda u oliy tushuncha. Muhabbatning ziddi-nafrat bo'lib, u ham muhabbat singari keng qamrovli tushuncha emas.

Nafratning aksi muhabbat tarzda namoyon bo'ladi, obe'ktidan chetlashishni, undan begonalashishni taqozo qiladi. Xazar, jirkanch hissi nafratning kundalik turmushdagi tor, «mayda» ko'rinishidir. Nafrat g'azabdan keskin farq qiladi. U g'azabga o'xshab, o'z obe'ktini yo'qotishga intilmaydi, undan faqat yuz buradi. U muhabbatga zid holda noinsoniy, adolatsiz, noinsoflarcha munosabati tufayli qo'zg'aladigan hissiyot deyish mumkin.

Ko'rinishidan nafrat kishida yoqimsiz taassurot uyg'otsa-da, ko'p hollarda u illat emas, axloqiy fazilat sifatida insonning vijdonliligidan, botiniy jasoratidan dalolatdir.

Nafratdan tashqari yana rashk tushunchasi mavjud bo'lib, u ijtimoiy hodisa emas, ko'p hollarda jinsiy munosabat bilan yonma-yon keladi. Muhabbat egasi o'z sevgisini va sevgilisini qizg'anib, asrab qolishga harakat qiladi. Ana shu qizg'anish hissi me'yordan oshib ketganda rashkka aylanadi. Rashkning mohiyati xudbinlikka borib taqaladi. Ba'zi hollarda rashk fojiaga olib kelishi mumkin.

Ezgulik va yovuzlik -u inson faoliyatining muhim tomoni, asl mohiyatini anglatadi.

Ezgulik – insonga eng kuchli ma'naviy lazzat bag'ishlaydigan, uni ijtimoiy shaxsga aylantirib, uni haqiqiy baxtga olib boruvchi fazilat; shaxsni komilikka, jamiyatni esa yuksak taraqqiyotga yetkazuvchi yuksak qadriyatdir.

Ezgulik va yovuzlik keng qamrovli bo'lib, ijtimoiy xususiyatga ega. Shu tufayli amaliyotda qahramonlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, jasurlik singari tamoyillarni o'z ichiga oladi. Masalan, insonparvarlik – odamzot qadri, erkinlik va qobiliyatlarini har tomonlama namoyon bo'lishi uchun kurashish, kishilarning

baxt-saodati, teng huquqliligi, adolatli hayotning taqdim etishga intilishini ifodalaydigan g'oya va qarashlardir. Bu jarayon insonni ezgulikka yetaklaydi.

Ezgulik axloqiy ideal bilan bog'liqdir va inson faoliyatini baholash xususiyatiga ega. U odam bolasini ulug'lik va tubanligini o'lchaydigan taroziga o'xshaydi. Ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik kategoriyasiga o'xshasada, ular o'rtasida farq bor. Ezgulik ijtimoiy xususiyatga ega, yaxshilik shaxsning odobiga, xulqiga bog'liq bo'lgan ijobiy hodisadir. Unda mardlik, ochiq ko'ngillilik, halollik singari axloqiy me'yorlar mujassamlashgan. Biroq, u qahramonlik, jasorat, vatanparvarlik kabi tamoyillar darajasiga ko'tarila olmaydi. Alisher Navoiy ezgulik bilan faoliyat ko'rsatdi. Uning asarlari yuzlab yillar mobaynida zavq – shavq ulashib, kishilarni komillikka chorladi. U ko'plab yaxshilik qildi, muhtoj odamlarga yordam berdi.

Ezgulik hech qachon yovuzlikka aylanmaydi, har zamonda har qanday sharoitda ham yovuzlik yovuzlik bo'lib qolaveradi. Chunonchi, Lenin, Stalin, Gitler, Pol Potlarni yovuz insonlar, sobiq Sho'rolar Ittifoqining esa jamiyat sifatida «Yovuzlik saltanati» deb baholash buning yorqin misolidir.

Yaxshilik va yomonlik -juft kategoriya bo'lib, ular ham bir-biriga ziddir. Kishining butun ma'naviy hayoti, shu jumladan, axloqiy tushunchalar ham ijtimoiy hayot ta'sida o'zgaradi. Yaxshilik va yomonlik insonning tug'ilishi bilan birga vujudga kelmaydi. Yaxshilik va yomonlik o'zaro munosabatli, ayni vaktda qutbiy va bir-birini inkor etuvchi kategoriyalardir. Yaxshilik tushunchasida bir muncha ijobiy narsalar, yangi axloqiy idealga mos keladigan narsalar haqidagi tasavvurlar jamlansa, yomonlik tushunchasida kishilarning idealiga, ular e'zozlaydigan narsalarga zid keladigan narsalar haqidagi tasavvurlar baxtga erishishiga, kishilar orasidagi munosabatlarda, taraqqiyotning qaror topishiga va insoniylikning o'sishiga to'sqinlik qiladigan hamma narsalar haqidagi tasavvurlar ifodalanadi.

Yaxshilik deganda kishilarning mehnatsevarligi, halolligi, mardligi, insoniyligi, oliyjanoblighi, odamlarga, xalqqa, jamiyatga yetkazadigan nafi, mehr-muruvvati,

muhabbati, kishilar og'irini yengil qilish kabi ijobiy hatti-harakatini ifodalovchi fazilatlar tushuniladi.

Yaxshilikning zid tomoni yomonlik bo'lib, u kishilarni dangasalik, tekinxo'rlik, zararkunandalik, zolimlik, mayxo'rlik, giyohvandlik, ig'vogarlik, g'iybatchilik, buzuqlik kabi salbiy hatti-harakatlarni ifodalaydi. Yaxshilik ezgulik, himmatlilikni anglatga, yomonlik yovuzlikni anglatadi.

Inson hayotining barcha ijobiy tomonlari yaxshilik bilan bog'langan tushunchadir. Ijtimoiy taraqqiyot, kishilar o'rtasidagi bo'ladigan munosabatda insoniylikning o'sishiga mos keladigan tub insoniy muammolardan kundalik turmush tarzi va uning munosabatlari, hatti-harakatlari, ijobiy xulq-odobi kabilar yaxshilik bilan ifodalanadi. Yaxshilikning zid tomoni yomonlik bo'lib, u ham insonlar o'rtasida bo'ladigan ijtimoiy munosabatlarda namoyon bo'ladi.

Adolat - qadriyatlar orasidagi nisbatni belgilaydi, ularni baholaydi. Adolatda jamiyatni tartibga soluvchilik xususiyati bor, unda ham axloqiy, ham huquqiy talablar mujassamlashadi. Uni ma'lum ma'noda axloq sohasidagi miqdor o'lchovi ham deyish mumkin: u talab bilan taqdir o'lchab turadigan tarozidir. Adolat bor joyda fayz-baraka, haqiqat qaror topadi.

Adolat kishilarning jamiyatdagi axloqiy o'zaro munosabatlarini mujassamlashtirib, taqdirlash va talab qilishning miqdoriy o'lchovini beruvchi baholash kategoriyasi hisoblanadi va huquq bilan axloqni bog'laydi. Axloq tushunchasi huquq normalarining muhim ijtimoiy – axloqiy mezonlari sifatida maydonga chiqadi. Demak, adolat tushunchasi huquqiy ongdan ancha oldin paydo bo'lgan. U huquqiy munosabatlar sohasida katta ahamiyat kasb etadi. Axloqshunoslikning asosiy baho kategoriyasi bo'lgan adolat turli dalillar, iqtisodiy, siyosiy huquqiy hodisalarni baholashda namoyon bo'luvchi obe`ktivlik, xolislik, haqqoniylik, insonparvarlik kabi alomatlarni zaruriy ravishda taqozo etadi va umuminsoniy axloqning muayyan elementlarini o'z ichiga oladi.

Burch - kishilarning jamiyatga nisbatan bo'lgan axloqiy majburiyatlarini ifodalaydi. Bu kishilarning oila, Vatan, millat, umuman jamiyat oldidagi majburiyati, mas'uliyati, sodiqligi, ongliligini ifodalovchi hatti-harakatlar majmuidir. Burch tushunchasi oilada yoshlikdan boshlanadi. U vijdon, e'tiqod, mas'uliyat kabi tushunchalar bilan chambarchas bog'liq. Ijtimoiy hayotda insonning har bir hatti-harakati zahirida burch tushunchasi, ya'ni burchiga sadoqat yoki hikmat yotadi. Agar inson o'z burchiga sadoqatli bo'lsa, u har bir kishiga obro', shon-sharaf keltiradi, agar inson o'z burchiga sodiq bo'lmasa, u kishiga xiyonat keltiradi.

Burch tushunchasi keng qamrovli bo'lib, ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida mas'uliyat bilan faoliyat ko'rsatgan: insoniylik burchi, musulmonlik burchi, nasroniylik burchi, fuqarolik burchi, otalik burchi, onalik burchi, farzandlik burchi, talabalik burchi, Vatant oldidagi burchi va hokazolar bo'lib, barcha davrlar uchun umumiy bo'lgan tushunchalari ham, jurnalistik burchi, shifokorlik burchi, olimlik burchi kabi kasbiy burch tushunchalari ham mavjud.

Demak, burch insonga mas'uliyat va majburiyat yuklaydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining **64-moddasida** bunday deyilgan: *«Ota onalar o'z farzandlarini voyaga yetkunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar»*. **66-moddasida esa:** *«Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar»*, - deb ta'kidlanadi.

Vijdon - vijdonlilik va vijdonsizlik tushunchalari ijtimoiy taraqqiyotining muayyan davrida, ijtimoiy muhitning ta'sirida shakllanadi. Vijdon insonni o'z muayyan jamiyat axloq normalari nuqtai-nazaridan turib axloqiy baholash va uni nazorat qilish, shuning bilan birga o'z hatti-harakatlariga bog'liq bo'lgan his-tuyg'u va kechinmalarini tahlil qilishdir. Inson o'z vijdoni oldida mas'uliyat his qilib yashaydi.

Vijdon tushunchasi ijobiy va salbiy kechinmalarni ifodalaydi. Masalan, inson quvonchi, u yoki bu iztirobdan qutulish, o'zini yengil tortishi, xijolatdan forig'

tortish va yuzining yorug' bo'lishi vijdongagi ijobiy his tuyg'ularni aks ettirsa, uzr surash, tavba qilish, iztirob chekish, pushaymon, uyalish, xijolat tortish kabilar salbiy kechinma, his-tuyg'u, hatti-harakatlarni ifodalaydi.

Vijdon tushunchalari o'zining rivojlanishi tarixi davomida umuminsoniy ma'no elementlari bilan boyib boradi, unga ko'p jihatdan axloq adolat va odamgarchilikning oddiy normalari o'z aksini topadi. Vijdon ko'zga ko'rinmas, lekin ulkan va mutlaq aybsiz axloqiy hodisadir.

1-Yurtboshimiz I. Karimov vijdon kategoriyasining buyukligi, jamiyatdagi salohiyatini ta'kidlab shunday degan edilar: «Vijdon bilan iymon bilan, diyonat bilan o'ynashib bo'lmaydi». Vijdonli odamlar bilan qo'yilgan maqsadga erishiladi, huquqiy davlat, demoqratik fuqarolik jamiyati quriladi.

Or-nomus (sha'n)- tushunchasi ham axloqning boshqa tushunchalari singari shaxs bilan jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi. ” Or-nomus mohiyatan shaxsning o'z qadr-qimmatini anglab yetishi, shu qadr-qimmatning jamiyat tomonidan joy olinishi yoki olinmasligiga nisbatan bo'ladigan munosabati bilan belgilanadi. Shuning uchun or-nomus, tushunchasi kishilarning ijtimoiy hayotdagi o'z qimmatining anglashi hamda bu qimmatni jamiyat tomonidan tan olinishini ifodalaydi. Nomus tushunchasi shaxsiy qadr-qimmatni anglashni o'z ichiga olar ekan, ular bir-biri bilan aloqada va ko'p jihatdan bir-biriga o'xshaydi. Biroq or-nomus, qadr-qimmat tushunchasi bilan bir xil ma'noga ega emas. Nomus – bu iffat, bokiralik ma'nolaridan tashqari insoning o'z mavqeini saqlash, ulug'lash va ardoqlash, xijolat tortish tuyg'usini avlodlar va ajdodlar sha'niga dog' tushirmaslik ma'nosini ifodalaydi.

Nomusni or tushunchasi bilan chalkashtirish hollari ham uchrab turadi. Lekin, aslida, nomusga nisbatan or ancha tor qamrovga, nisbatan zalvorsiz tushuncha. Masalan, oriyatli odam deganda, eng avvalo o'z so'zining ustidan chiqadigan, sadaqa tarzida qilingan muruvvatlardan baland turadigan shaxs tushuniladi. Beor odam – o'z sha'niga aytilgan gaplarga parvo qilmay, ishini bajarib ketadigan surbetnamo kishilardir.

Nomusning toshi ogir, ijtimoiy xususiyatga ega, keng qamrovli. Nomus yo'lida inson hatto o'z hayotidan kechishi mumkin. Odamlar o'z nomusi, oila nomusi, millat, jamoa nomusi deb kurashadilar. Nomus obru tushunchasi bilan bog'lanib ketadi.

Demak, o'zini o'zi hurmat qilish, o'ziga nisbatan atrofdagilarning hurmat-izzatini yo'hotmaslikdan o'z-o'zini nazorat qilish hissidan kelib chiqadi.

Or-nomus tushunchalari inson faoliyati bilan bog'liq jarayon bo'lib, inson oldida yuksak mas'uliyat yuklaydi. Kishilik tarixidan ma'lumki, inson orli, nomusli bo'lishni maqsad qilib qo'yadi va bu borada faoliyat ko'rsatadi. «Jamiyatning eng oliy boyligi bo'lgan xalq, - deb ta'kidlaydi Prezient I. Karimov, - abadiy qadriyatlarni, qudratli salohiyatini o'zida jamlagan. Bu salohiyatni yuzaga chiqarish jamiyatimizni rivojlantirish va taraqqiy ettirishning kuchli omili bo'lib xizmat qiladi».

Baxt- bu o'z hayoti ma'nosini qay darajada tushunish va shu ma'nodagi umri mobaynida qoniqish hosil qilishdan iborat jarayondir.

Abu Nosir Forobiy «Baxt – bu har bir inson intiladigan maqsad, zotan u muayyan komillikdir», - deb ta'kidlagan. Haqiqatdan ham baxt inson hayotining umumiy bahosidir. Baxt tushunchasini rivojlanishi jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'langan, u jamiyat hayotida sodir bo'ladigan o'zgarishlarni muvofiq rivishda yangi mazmun bilan boyib boradi, umuminsoniy elementlarni saqlab qoladi. Baxtning umuminsoniy elementi shaxsiy hayot tarzini, o'zining mavjudligini idrok etadigan, normal yashash sharoitini ta'minlashdan o'z mavjudligini foydalanishga ishonchdan insonning muhabbat, do'stlik, ota-onalik zavq-shavqini anglashdan iborat.

Baxt eng avvalo ma'naviy ehtiyoj bilan bog'liq, unda maqsadlarga birin – ketin erisha borish, konikish jarayoni, bir umr to'xtamaydi, doimo lazzat va zavqni o'z ichiga oladi. Baxt orzu kabi idealning hissiy ehtiros shakli sifatida ko'zga tashlanadi, shaxs intilishini ro'yobini anglatadi. Baxt omad bilan bog'liqdir.

Omad- tasodif, baxt – zaruriyat, *omad* istisnoli, baxt-qonuniy hodisa. *Omad* – shaxsning bir zumlik holatini aks ettiradi. Baxt esa inson nimaga erishmog'i lozim savoliga umri mobaynidagi amaliy javobidir. Baxtni tushunish har bir davrda, ma'lum tarixiy sharoitda millat, shaxs va jamiyatning taraqqiyot darajasiga qarab, turlicha muayyanlashish xususiyatiga ega. Har bir kishi o'z baxtini mehnati, tinch-totuv yashashi, kasb-kori, ilm-fan va texnika fanlarini egallashi bilan topadi. Buyuk shoirimiz Gafur G'ulom: *"Taqrirni qo'l bilan yaratur odam, g'oyibdan kelajak baxt bir afsona"*, - deb yozgan edi.

Asosiy mezon kategoriyalar singari **axloqiy tamoyillar** ham axloqiy ong shakllaridan hisoblanadi. Ularda axloqiy talab nisbatan umumiy tarzda ko'zga tashlanadi. Ular jamiyat tomonidan shaxsga qo'yiladigan talab tarzida namoyon bo'lib, insonning axloqiy mohiyatini, uning hayoti mazmunini, odamlar bilan o'zaro aloqalaridagi asosiy jihatlarni belgilab beradi. Natijada tamoyillar, inson hatti-harakatining umumiy yo'nalishini ko'rsatgan holda, ko'pgina axloqiy me'yorlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Insonparvarlik. Axloqiy tamoyillarining eng qadimiy va eng muhimlaridan biri –insonparvarlik. U - insonning yuksak ijtimoiy vazifasini belgilaydigan va barqaror etadigan g'oyalar, qarashlar va e'tiqodlar majmui, shaxs erki, qadr-qimmat, uning baxtli bo'lish huquqini talab etish imkonining mavjudligiga yengilmas ishonch. Insonparvarlik tamoyilini dastlab YEvro'pa Uyg'onish mutafakkirlari ilgari surganlar, degan fikr mavjud. Aslida, insonparvarlik dastavval Sharqda o'rta tashlangan, insoniylik, insonparvarlik degan ma'noni bildiruvchi "namlulu" so'zi bundan 3-4 ming yillar avvalgi Qadimgi Somir mix xatlarida uchraydi.

Erkparvarlik. Agar insonparvarlik tamoyili shaxsning barcha insoniy haq-huquqlari himoyasida tursa, ya'ni ancha keng qamrovli va umumiy intilish bo'lsa, erkparvarlik tamoyili uning ma'lum ma'noda muayyanlashgan bir qismi hisoblanadi. Erkparvarlik insonning eng oliy huquqi- erkin, ozod yashash huquqini himoya qilishi bilan muhimdir. Zero,erksiz inson- asir, erksiz millat – qul, erksiz

mamlakat-mustamlaka. Erklarparvarlik, avvalo, o'z millati, o'z Vatani erki uchun, qolaversa, boshqa millatlar va vatanlar erki uchun kurashni hayotining maqsadi qilib qo'ygan insonlar tamoyilidir. Erklarparvarlik tamoyilini hayotining ma'nosi deb bilgan insonlarning ma'naviy umri boqiy, ular kelajak avlodlar uchun ideal bo'lib qoladilar.

Vatanparvarlik. Eng ma'lum va mashhur tamoyil, bu- vatanparvarlik. U insonning o'z Vataniga muhabbatini, uni asrab-avaylashga bo'lgan ishtiyoqini anglatuvchi axloqiy tushuncha. Uni ko'pincha vatan dushmanlariga qarshi ma'naviy-mafkuraviy qurol sifatidagina talqin etadilar. Aslida esa bu tamoyilning qamrovi ancha keng-u insonparvarlikning nisbatan muayyanlashgan shakli. U, eng avvalo, o'z vatantoshlari erkini asrash uchun kurash, inson ozodligi yo'lidagi hatti-harakatlardir.

Vatan himoyasi, bu inson himoyasi, millat himoyasi. Lekin bu himoya, yuqorida aytganimizdek, faqat jang maydonida emas, balki barcha sohalarda ham namoyon bo'lishi mumkin. Har jabhada Vatan erishgan muvaffaqiyatlardan quvonch, muvaffaqiyatsizliklardan qayg'u hissini tuyush, Vatan bilan g'ururlanish, uning har bir qarich eriga, binosining har bir g'ishtiga, qadimiy obidalariga, ilm-fan va san'atdagi yutuqlariga mehr bilan qarash, ularni ko'z qorachig'idek asrab-avylash bular hammasi vatanparvarlikdir.

Vatanparvarlik tamoyili Vatan tushunchasini fidoyilarcha idrok etish, muayyan hudud va xalqqa muhabbat hissi singari omillar bilan bog'liq. Hozirgi paytda yoshlarimizda vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalash, ularni Vatan ma'nosini teran anglab etishga o'rgatish, vatanparvarlik-yuksak axloqiy tamoyil ekanini tushuntirish axloqshunoslikning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

Millatparvarlik. Yana bir muhim axloqiy tamoyil, bu-millatparvarlik. U, ma'lum ma'noda, vatanparvarlik tamoyilining yanada muayyanlashgan shakli. Zero, millatni sevish keng ma'noda Vatanni sevish degani. Vatan-siz millatning bo'lishi yoki rasmana erkin va baxtli yashashi mumkin emas.

Shu o'rinda millatparvarlikni millatchilik bilan qorishtirib yubormaslik lozim. Millatchilik o'z millatini ajratib olib, unga buyuklik maqomini berishga intilish

bo'lsa, millatparvarlik, boshqalarni kamsitmagan holda, o'z millati ravnaqi uchun kurarish, bu yo'lda, lozim bo'lsa, o'z hayotini ham fido qilish demakdir. U insonparvarlik bilan ham chambarchas bog'liq. Chunki o'zmillatini chin dildan sevmagan odam hech qachon boshqa millatlarni seva olmaydi.

Asl millatparvar-milliy o'zligini anglab etgan inson. U o'zi millati bilan farxlanadi, o'z millati bilan butun jahonning faxrlanishini istaydi. Chunonchi, Navoiy do'ppi bilan to'n kiygan o'zbekni har qanday shoh jamolidan afzal ko'radi:

Shohu toju xilatekim, men tomosha qilg'ali

O'zbekim boshida qalpoq, egnida shirdog'i shirdog'i bas.

Lekin Navoiy shu faxrlanishi, g'ururlanishi barobarida o'zgalarga kibr bilan qaragan emas, aksincha, o'zga til vakili bo'lmish Jomiyga bag'oyat hurmat-izzat ko'rsatib, unga, pirim, deb qo'l bergan. Millatparvarlik tamoyili asosida milliy g'oya yotadi, u millatni sevish amaliyotining-millatparvarlikning ilmiy-nazariy asosi sifatida maydonga chiqadi. Milliy g'oyaning zamonaviy, biz tanlagan ko'rinishini, uning mafkuraviy jihatlarini Respublikamiz 1- Prezidenti Islom Karimov shunday ta'rifayli: "Milliy mafkuramiz har qanday millatchilik va shunga o'xshash unsurlardan, boshqa elat va xalqlarni mensimaslik, ularni kamsitish kayfiyati va qarashlaridan mutlaqo xoli bo'lib, qo'shni davlat va xalqlar, umuman, jahon hamjamiyatida, xalqaro maydonda o'zimizga munosib hurmat va izzat qozonishda poydevor va rahnamo bo'lishi darkor".

Uning ikkinchi jihati esa mana bunday talqin etiladi: "Milliy g'oya birinchi navbatda yosh avlodimizni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat yo'lida tarbiyalash, ularning qalbiga insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini payvand qilishdek olijanob ishlarimizga madadkor bo'lishi zarur".

Asl millatparvar ana shunday bo'lishi kerak. Asl millatparvar insonlarning umri millatning umri kabi mangudir. Millat yo'lida o'z jonini tikkan Munavvar qori, Behbudiy, Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon singari minglab fidoyilarni xalqimiz hech qachon unutmaydi.

Fidoyilik. Ma'lumki, inson muayyan mamlakat va jamiyatdagi qoidalarni, huquqiy me'yorlarni buzmay yashashi mumkin. Rasmiy-huquqiy idoralar va

tuzilmalar tomonidan bunday odam rasmona, jamiyat uchun xavf tug'dirmaydigan shaxs hisoblanadi. Lekin bunday odam axloqsiz bo'lishi, huquq bilan hisoblashgan holda axloqni tan olmasligi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, u o'z mamlakatidagi jinoyat kodeksini tan olishi barobarida, qalbidagi vijdon qonunlari bilan hisoblashmaydi, jinoiy jazodan qo'rqadi-yu, vijdon azobini bilmaydi.

Fidoyilik tamoyilining mazmuni turli tarixiy davr va ijtimoiy jarayonlarda turlicha muayanlashadi; u ma'lum bir davrlarda ommaviylashishi yoki kamayishi mumkin. Chunonchi, mustaqillikka erishganimizdan so'ng dastlabki paytlarda o'tish davriga xos bo'lgan - fidoyilikka nisbatan xudbinlik tamoyilining kuchayganini ko'rdik. Hozirga kelib esa, aksincha, asta-sekinlik bilan jamiyatimizda fidoyilik ustuvor tamoyil maqomini egallab bormoqda; 1 - Prezident Islom Karimovning fidoyilik tamoyili mohiyatini to'la anglatadigan "Elim deb, yurtim deb yonib yashash kerak!" degan so'zlarini axloqiy shoir qilib olgan jamiyatimiz a'zolarining ilg'or qismi tobora ko'payib bormoqda. Ana shu ko'payib borish jarayoni qancha tezlashsa, biz qurayotgan davlatning shakli-shamoyili shuncha muayyanlik kasb etadi.

Ziyolilik. Ziyolilik tamoyili hozir biz anglaydigan tushunch ma'nosida nisbatan uzoq tarixga ega emas. U jadidchilik harakati bilan birga yuzaga keladi desak, xato qilmagan bo'lamiz. Lekin bu tamoyilning inson faoliyatidagi dastlabki unsurlari O'rta asrlar va undan keyingi davrlardagi ma'rifatparvarlar hatotida shakllanganini e'tirof etmoq lozim. Ya'ni, u insoniyat jamiyatidagi madaniy va intellektual – aqliy taraqqiyot bilan bog'liq. Shu bois uni inson paydo bo'ganidan ancha keyin vujudga kelgan axloqiy hodisa deb talqin etish maqsadga muvofiq. XX asr allomalaridan biri, buyuk almon faylasufi, "Frankfurt maktabi" ning namoyondasi Teodor Adarno Ikkinchi jahon urushidagi genosiddan so'ng, ziyolilik – axloqiy kategoriya, degan fikrga kelganida mutlaqo haq edi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, ziyolilik axloqiy tushuncha – tamoyil sifatida murakkab va ko'pyoqlamalik tabiatiga ega. Ba'zilar ziyolilik deganda oliy ma'lumotli kishiga xos bo'lgan fazilatni tushunadilar. Vaholanki, ziyolilik

tamoyili tabaqa yoki guruhga mansublik ma'nolarini anglatmaydi. Oddiy fermer – dehqon ham, haydovchi ham, farrosh ham ziyolilik tamoyili bilan ish ko'rishi va atrofdagilar tomonidan: “ Ha, falonchimi, juda ajoyib, ziyoli odam – da “, degan yuksak ijtimoiy bahoga loyiq bo'lishlari mumkin. Bunda u odamning kasbidagi qat'iy , nazariya ham bilim, ham fahm – farosat, ham oliy maqsadlar egasi tushuniladi. Shunday qilib, ziyolilik sosida insonning ma'naviy – ma'rifiy yuksagligi, qalbidagi ichki nur, atrofni ham nurlantira oladigan ziyosi bilan belgilanadigan hatti – harakatlar yotadi.

Mehnatsevarlik . Inson barcha mavjudotlar ichida hatti – harakatlarining, faolyatlarining ko'pligi va xilma – xilligi biln ajralib turadi. Mehnat ana shu hatti – harakatlarning aniq maqsadga yo'naltirilgan qismidir.

Mehnatsevarlik tamoyili mehnat jarayonida shaxsning o'z – o'zini namoyish etishga, o'zligini ro'yobga chiqarishga, o'zgalar bilan munosabat o'rnatishga imkon yaratuvchi axloqiy fazilatdir. U insondagi halollikni, intizomni, ishtiyoq va intilishni talab etadi, mehnatga nisbatan subyektiv tarzda ijobiy munosabatni taqozo qiladi.

Mehnatsevarlikni tarbiyalab borishda, uni kuchaytirishda raqobat alohida ahamiyatga ega. Zero, raqobat faqat moddiy ustunlikni emas, balki ma'naviy ustunlikni ham taqozo etadi, ya'ni unda moddiylik va ma'naviylik teng ishtirok etadi.

Mustaqilligimiz sharofati bilan mehnat yana erkin shaxning o'ziga va atrofdagilarga individual munosabatga aylandi, “ mohiyatan besh qo'l barobar bo'sin” degan tenglashtirish siyosati barham topdi. Mehnatsevarlik esa yangi jamiyatimiz kishisining, jahonniy kenglikka chiqish huquqiga ega bo'lgan shaxsning sevimli va huzurbaxsh tamoyiliga aylandi.

Tinchlikparvarlik. Bu axloqiy tamoyil ham insoniyat hayotida muhim ahamiyatga ega. Chunonchi, tinchlikparvarlik urushning, qon to'kishning har qanday ko'rinishini inkor etadi, oddiy tinchliksevar shaxsning tinch – totuv yashashga bo'lgan munosabati bilangina chegaralanib qolmaydi, balki dushmanlik va tajovuzkorlikka qarshi kurashni, zarba berishni taqozo etadi. Unda tinchlik

haqida chiroylik gaplar aytish, yig'inlarda ma'ruzalar qilish emar, balki faol hatti – harakat, uyushtiruvchlik, tashkilotchilik birinchi faoliyat hisoblanadi.

Tinchlikparvarlar fidoiy insonlardir. Ularning ana shu fidoiylarcha hatti – harakatlari pirovard natijada har bir inson hayotiga qaytarilmas noyob qadriyat sifatida qarashga, har bir fuqaro qadrini , har bir davlat suverenitetini, har bir millatning o'z hayot tarziga monand yashash huquqini muqaddas deb tan olinishiga olib keladi, mamlakatlararo jamoat tartibini saqlashga, avlodlar ravnaqiga, tarixiy – madaniy hamkorlikka, millatlar va turli ijtimoiy guruhlar orasida o'zaro tushunishning qaror topishiga xizmat qiladi.

Jumardlik. Jumardlik tamoyili esa Sharqda qadimdan mavjud. Ovrupada uni altruizm nomi bilan Ogyust Kont ilmiy muomalaga kiritgan. U kishidagi o'z qavmdoshiga achinish hissidan, unga baxt va farovonlik tilash tuyg'usidan kelib chiqadi, mohiyatan beminnat xayriyaga asoslanadi. O'z manfaatidan o'zga manfaatini ustun qo'yib, “o'z og'zidagini o'zga og'ziga tutib” yashash jo'mard insonning hayot tarziga aylanadi. Bu –oddiy xayriya emas, balki muhtojlikning har qanday ko'rinishiga qarshi o'ziga xos kurashdir. Ammo bu kurash insonparvarlik, vatanparvarlikdagi singari qat'iy jamiyat yoki jamoaning axloqiy – me'yori talablaridan kelib chiqmaydi, u faqat va faqat xususiylik tabiatiga ega, har bir shaxsning erkin ixtiyori bilan bog'liq axloqiy tamoyil. Chunonchi, biror kishi tomonidan insonparvarlik yoki vatanparvarlik talablarini bajarmaslik boshqalarda unga nisbatan nafrat hissini uyg'otadi, jumardlik ko'rsatmagan odam esa bunday ma'naviy javobgarlikka tortilmaydi. Zero, jumardlik mohiyatan “oddiy omadlik qobig'idan chiqib bilish”, ilohiylik sifatlariga esa bo'lib borish demakdir, bu esa hammaga ham nasib etavermaydi.

Inson hayotida axloqiy me'yorlar ham katta ahamiyatga ega. Ular tamoyillarga nisbatan ancha sodda, umumlashmagan, tor qamrovli. Ularni kundalik hayotimizda ma'lum axloqiy tamoyillarning amalga oshish murvatlari ham deyish mumkin, ular axloqiy talablarning eng oddiy shakli sifatida ro'yobga chiqadi. Halollik, rostgo'ylik, insoflilik, xushmuomalalik, boodoblik, kamtarlik kabi me'yorlar ayniqsa diqqatga sazovor.

Halollik va rostgo'ylik. Avval shuni aytish kerakki, halollikni uning dastlabki tor diniy mazmunida - qaysi taom harom-u, qaysisi halol, degan ma'noda tushunmaslik lozim. U allaqachon umuminsoniy- dunyoviy ma'no kasb etgan me'yorga aylangan. Halollik, rostgo'ylik- vijdon tushunchasi bilan bo'g'liq, insonning o'zgaga munosabati o'ziga munosabatidek sof bo'lishini talab etuvchi me'yorlardir.

Prezidentimiz Islom Karimov nutqlaridan birini " Halollik va fidoyilik faoliyatimizning asosiy mezon bo'lsin" deb, boshqa bir suhbatini esa " Adolat har ishda hamrohimiz va dasturimiz bo'lsin" deb atagani bejiz emas; hozirda halol, rostgo'y, insofli, fidoyi insonlardan iborat bo'lgan fuqarolar jamiyatini qurish - faqat axloqiy muammo emas, balki kelajagi buyuk davlatimizning mohiyatini anglatuvchi ijtimoiy- siyosiy yangilanishdir.

Insoflilik ham halollik kabi vijdon tushunchasi bilan bog'liq, ma'lum ma'noda halollikka o'xshab ketadi. Lekin bu yuzaki taassurot. Chunki halollik o'z haqi va haqqini, ya'ni moddiy va ma'naviy huquqini o'zgalarning haqi va haqqiga xiyonat qilmagan holda ajratib yashashni anglatadi. Insoflilik esa ijobiylikda halollikdan ham bir qadam olg'a tashlangan holatdir: unda kishi o'z halol haqi va haqqidan o'zganing hisobiga kechadi; "o'zga" ning sharoiti o'zinikidan nihoyatda og'ir va yomon ekanini hisobga olib, o'z qonuniy haqi va haqqini yoki ularning bir qismini ixtiyoriy ravishda o'zgaga beradi, muruvvat ko'rsatadi.

Xushfe'llik, shirinsuxanlik, kamtarinlik, bosiqlik singari axloqiy hatti-harakatlar me'yoriylik nuqtai nazaridan g'oyat muhim. Chunki har bir jamiyat darajasi ma'lum ma'noda undagi fuqarolar muomala madaniyatining yuksakligi bilan ham belgilanadi. Zero xushfe'l, shirinsuxan inson o'zining har bir muvaffaqiyatsizligiga fojia sifatida qaramaydi, alam yoki g'azab bilan yomon kayfiyatini boshqalarga o'tkazishga intilmaydi; atrofdagi axloqiy muhitni buzmaydi. Natijada o'ziga ham, o'zgalarga ham ko'tarinki kayfiyat, turli-tuman omadsizliklarning o'tkinchiligini anglatuvchi hayotbaxsh bir umid bag'ishlaydi. Jamiyat doimo o'shanday odamlarni hurmat qiladi va ulardan o'rnak olishga intiladi.

Xushfe'llik, shirinsuxanlik qay darajadadir ko'proq ixtiyor bilan, kishining ma'lum bir insoniy tabiatga intilishi bilan bog'liq bo'lsa, bosiqlik, kamtarinlik, kamsuqumlik aksincha, ko'proq iroda kuchi natijasida yuzaga keladi. Zotan insonning o'z g'azabini bosa bilishi, noroziligini barvaqt bildirmasligi; so'zlagisi, biror-bir gap bilan o'zini ko'rsatgisi kelib qolganda o'sha istakni toxtata olishi kuchli irodani talab qiladi.

Shu bois muomalada bosiq, kamtarin, "yetti o'lchab bir kesish" tamoyili asosida ish ko'rgan shaxslar oqil odamlar sanaladi va ular jamiyatda ham namunaviylik maqomiga noil bo'ladilar.

Xulosa. Axloqning o'ziga xos mezoniy tushunchalari bo'lib, ular dialektik aloqadorlikni taqozo etadi. Bu mezoniy tushunchalar ijtimoiy taraqqiyotning dastlabki davrlaridan paydo bo'lib, inson faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan jarayondir.

Axloqning mezoniy tushunchalari ma'naviyat va ma'rifatni yuksakka ko'tarishda, kishilarni komillik tomon yetaqlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi

1.2.Huquq tushunchasi va uning mohiyati: belgilari,funktsiyalari, tuzilishi, tizimi, manbaalari.

Huquq murakkab ijtimoiy-huquqiy hodisa bo'lib, turli-tuman nuqtai nazardan talqin etiladi. Eng mashhur yondashuvlarni umumlashtirib, huquq-erkin va teng sub'ektlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning tarixan shakllangan, undan chetga chiqish davlat majburlovi vositalari bilan bartaraf etilishi mumkin bo'lgan tartibning normativ ifodasi, degan xulosaga kelish mumkin.

Huquqning davlat bilan uzviy aloqasiga asoslanib (ma'lumki, davlat hokimiyat-majburlov vositalari yordamida huquqni amalga oshirishni ta'minlaydi), ko'pincha huquqni davlat yaratadi, degan xulosaga kelinadi. *Huquq (sof yuridik ma'noda)* – ijtimoiy manfaatlarni ifodalovchi, davlat tomonidan o'rnatiladigan hamda ta'minlanadigan va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan umummajburiy yuridik normalar tizimi.

Huquq davlat tomonidan o'rnatiladigan va qo'riqlanadigan, mamlakat aholisining umumiy va shaxsiy manfaatlarini ifodalovchi va ijtimoiy munosabatlarni davlat tomonidan tartibga solish vositasi sifatida amal qiluvchi umummajburiy xulq-atvor qoidalari tizimidir. Huquqning mohiyati va ijtimoiy vazifasi uning funksiyalarida namoyon bo'ladi.

Huquqqa turli yondashuvlarning tahlili uning quyidagi muhim xususiyatlari va belgilarini qayd etish imkonini beradi:

1. *Huquq - normalar yoki xulq-atvor qoidalari tizimi.* Boshqa har qanday tizim singari, u ham bir tartibli, o'zaro uzviy bog'langan va o'zaro ta'sirga kirishuvchi qismlardan tashkil topadi. Tizimning ayrim tarkibiy qismlari o'rtasida yuzaga keluvchi aloqalar yagona maqsadlarga erishishga qaratilishi lozim. Har qanday normalar (xulq-atvor qoidalari) tizimi zamirida ob'ektiv va sub'ektiv omillar yotadi. Ob'ektiv omillar orasida muayyan mamlakatda huquqiy normalar tizimi vujudga kelishi va faoliyat ko'rsatishiga imkoniyat yaratuvchi iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, mafkuraviy va boshqa omillar alohida o'rin egallaydi. Ayrim

normalar ham, ularning tizimi ham amalda o'z-o'zidan, muayyan shaxslarning xohishi yoki ko'rsatmasiga binoan vujudga kelmaydi, ular jamiyat va davlat hayotining ob'ektiv ehtiyojlari ta'sirida vujudga keladi.

Normalar tizimining vujudga kelish va faoliyat ko'rsatish jarayoni ob'ektiv omillar bilan bir qatorda sub'ektiv omillar ham mavjud bo'lishini nazarda tutadi. Bu erda muayyan mamlakatda ilmiy asoslangan huquqiy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish, qonunchilik ishlari rejalarini tayyorlash va bajarish, davlat organlarining huquq ijodkorligi, huquqni qo'llash va huquqni muhofaza qilish faoliyati jarayonida yuristlarning faol ishtiroki to'g'risida ham gap bormoqda.

2. Huquq - davlat tomonidan o'rnatilgan yoki ma'qullangan normalar tizimi. Jahonda turli ijtimoiy normalar tizimlari juda ham ko'p. Biroq, faqat huquqiy normalar tizimigina davlat tomonidan yaratiladi. Huquq normalarini o'rnatar ekan, davlat bevosita o'z vakolatli organlari orqali ish ko'radi.

Huquqiy normalar tizimining davlat tomonidan o'rnatilganligi va ma'qullanganligi ularning davlatga to'la bog'liqligini va unga bo'ysunishini anglatadimi? Bu masalaga ikki xil yondashuv mavjud.

Birinchi yondashuvga ko'ra, huquq normalariga «davlat talablari» sifatida qaraladi. Bunda davlat huquq manbai sifatida ta'riflanadi. Davlat hokimiyati huquqqa tobe emas, balki undan ustun bo'lib qoladi. SHunday qilib, davlatga birlamchi, huquqqa - ikkilamchi hodisa sifatida qaraladi.

Ikkinchi yondashuvga ko'ra, davlat, davlat hokimiyati huquqiy xususiyat kasb etadi. Davlat hokimiyati zahirida fakt emas, balki huquq yotishi kerak. Davlat, garchi u huquqiy hujjatlar qabul qilsa-da, huquqning manbai bo'lishi mumkin emas. CHunki, davlat hokimiyatining o'zi huquqdan kelib chiqadi, ya'ni uning vakolatlari huquq vositasida rasmiylashtiriladi. Davlat huquqdan emas, balki huquq davlatdan ustun turadi, uni muvozanatga soladi va chegaralaydi.

Bundan tashqari, davlat va huquq o'zaro munosabatlari xususiyatiga nisbatan boshqacha yondashuvlar ham mavjud. Bu yondashuvlar murakkabligi, har xilligi va ziddiyatlilikiga qaramay, ularning aksariyati huquq normalari davlatning

huquq ijodkorligi faoliyati bilan belgilanadi, davlat tomonidan qabul qilinadi yoki tasdiqlanadi, degan asosiy fikrga asoslanadi.

3. Huquq - umummajburiy xususiyatga ega normalar yoki xulq-atvor qoidalari tizimi. Umummajburiylik (ya'ni, normativlik) huquq normalarida ifodalangan talablar jamiyatning barcha a'zolari tomonidan bajarilishi shartligini anglatadi. U huquq normasi bilan birga yuzaga keladi, u bilan birga rivojlanadi va huquq normasi ifodalangan hujjat bekor qilinishi bilan bir vaqtda barham topadi.

Umummajburiylik nafaqat oddiy fuqarolar, mansabdor shaxslar, turli nodavlat organlari va tashkilotlari, balki davlatning o'ziga nisbatan ham tatbiq etiladi. Basharti, huquqiy davlat, agar u og'izda emas, balki amalda ma'rifatli va huquqiy bo'lsa, u muqarrar tarzda o'zini va o'z organlarini huquq normalari talablarining umummajburiyligi bilan cheklaydi, o'z faoliyatini qonun talablariga qat'i muvofiq tarzda tashkil etadi va bu talablar ular ifodalangan normalar bilan birga belgilangan tartibda o'zgartirilmagunicha yoki bekor qilinmagunicha ularga rioya qiladi.

4. Huquq davlat tomonidan muhofaza qilinadi va ta'minlanadi. Huquq normalarida ifodalangan talablar buzilgan hollarda davlat majburlovi qo'llaniladi.

Davlat o'zi qabul qilgan yoki tasdiqlagan hujjatlarga befarqlik bilan qaray olmaydi, u mazkur hujjatlarni amalga oshirishga katta kuch-g'ayrat sarflaydi, ularni muhofaza qiladi va bajarilishini kafolatlaydi. Bunda keng qo'llaniladigan usullardan biri – ishontirish, ikkinchisi – davlatning jismoniy va ruhiy majburlovi hisoblanadi.

Jismoniy majburlov deganda, huquq bilan nazarda tutiladigan, huquqiy tartibotni saqlash uchun jismoniy kuch va vositalar qo'llanishidan iborat bo'lgan zaruriy chora-tadbirlar tushuniladi. Ruhiy majburlov deganda, shaxs bo'ysunmagan holda qo'llanishi qonun bilan nazarda tutilgan choralarga yo'liqishdan qo'rqish birinchi o'rinda turadi. Aynan qo'rquv fuqarolarni o'z xulq-atvorini huquq qonun talablariga moslashtirishga ruhan majbur etadi. Davlat ishontirish va majburlovdan huquq normalarining qo'llanilishini ta'minlash

uchungina foydalanadi. Boshqa barcha hollarda undan foydalanishning ehtimol tutilgan imkoniyatigina muttasil sanaladi.

Huquq funksiyalari – ijtimoiy munosabatlarga yuridik ta'sir etishning asosiy yo'nalishlari bo'lib, ularning mazmuni huquqning mohiyati va jamiyat hayotidagi ijtimoiy vazifasi bilan belgilanadi. Huquq, avvalo, jamiyat hayotining turli jabhalari – iqtisodiyot, siyosat, ijtimoiy sohaga, madaniy-ma'naviy munosabatlarga ta'sir etadi va shu tariqa iqtisodiy, siyosiy va tarbiyaviy mazmundagi umumijtimoiy funksiyalarni bajaradi. Sof yuridik nuqtai nazardan huquq funksiyalarini ikki – *regulyativ* (tartibga soluvchi) va *negativ* (qo'riqllovchi) turga ajratish mumkin.

Huquqning regulyativ funksiyasi - jamiyat a'zolarining yurish-turishi va xulq-atvorining ijobiy, barchaga maqbul qoidalarini o'rnatish, ijtimoiy munosabatlarni yuridik tashkil etish, kishilar o'rtasidagi ijtimoiy aloqalarni uyg'unlashtirish va barqarorlashtirishdan iborat. Bu funksiya doirasida huquqiy ta'sirning yana ikki – *regulyativ-statik* va *regulyativ-dinamik* huquqiy funksiyalar yo'nalishi haqida so'z yuritish mumkin.

Huquqning qo'riqllovchi funksiyasi – uning ijtimoiy vazifasi bilan belgilangan huquqiy ta'sir etish yo'nalishi bo'lib, u umumiy ahamiyatga molik, o'ta muhim iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy va boshqa ijtimoiy munosabatlarni muhofaza etishga, ularning daxlsizligini ta'minlashga yo'naltiriladi va shu bilan birga jamiyatga yot, zararli munosabatlarni siqib chiqarishga qaratiladi.

Huquqning funksiyalari. Huquq jamiyat hayotida muayyan funksiyalarni bajaradi. Huquqning funksiyasi deganda, ijtimoiy munosabatlarga ta'sir etish, ularni tartibga solishning asosiy yo'nalishlari tushuniladi.

Huquqning asosiy funksiyalari quyidagilar: tartibga soluvchi, qo'riqllovchi va tarbiyaviy.

Huquq ijtimoiy normalardan farq qiladi. Ijtimoiy normalarning turlariga quyidagilar kiradi: axloq normalari, jamoat birlashmalari normalari, milliy urf-

odatlar, xalqlarning odatlari, an'ana normalari, siyosiy hayot norma-lari, huquq normalari, diniy normalar.

Huquq normalarining boshqa ijtimoiy normalardan farqini huquq norma-lari va axloq normalarini taqqoslash orqali ko'rsatib beramiz.

Huquq normalarining belgilari va tuzilishi. «Norma» so'zi lotinchadan tarjima qilinganda «qoida», «namuna» ma'nosini anglatadi.

Huquq normasi — davlat tomonidan belgilanadigan, kafolatlanadigan va muhofaza qilinadigan barcha uchun majburiy xulq-atvor qoidasi.

Huquq normasi umumiy xulq-atvor qoidasi sifatida:

hayotiy munosabatlardagi tipik, takrorlanib turadigan narsalarni umumlashtirish zarurati natijasida shakllanadi;

shaxsi aniqlanmagan va ko'p marta qo'llashga mo'ljallangan bo'ladi;

hamisha qandaydir umumiy belgilarga ega bo'lgan shaxslar (harbiy xizmatchilar, vrachlar va sh.k.)ga qaratilgan bo'ladi.

Huquq normasi davlat bilan uzviy aloqadordir. Huquq normasi:

- davlatning (xalqning) irodasini aks ettiradi;
- davlat tomonidan normativ hujjatlarda shakllantiriladi;
- davlat tomonidan muhofaza qilinadi, zarur bo'lgan hollarda davlatning majburlov kuchi bilan ta'minlanadi;
- jamiyat va davlat nuqtai nazaridan eng muhim bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlaydi.

Huquq normasining asosiy vazifasi – ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish. Huquq normasi umummajburiy xususiyatga ega. U huquqtizimidagi birlamchi hujayradir. Huquq alohida normalar, xulq-atvor qoidalaridan tashkil topgan. Ular birgalikda u yoki bu mamlakatning huquqiy tizimini tashkil etadi.

Huquq normasi, tuzilishiga ko'ra, uch tarkibiy qism: gipoteza, dispozitsiya va sanksiyadan tashkil topgan.

Gipoteza — huquq normasining tarkibiy qismi bo'lib, unda norma amal qila boshlaydigan, bajariladigan sharoit bayon etiladi. Pensiya haqidagi qonunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida erkaklarga umumiy mexnat staji 25 yil bo'lganidan

soʻng 60 yoshdan, ayollarga esa 20 yillik staj bilan 54 yoshdan boshlab sotsial taʼminot boʻlimlari tomonidan pensiya toʻlanadi.

Dispozitsiya — huquq normasining shunday tarkibiy qismiki, unda xulq-atvor qoidalarining oʻzi ifodalanadi, huquq subʼektlarining huquq va majburiyatlari belgilab beriladi. Masalan, Jinoyat kodeksining 223-moddasida belgilangan tartibni buzib chet elga chiqish yoki Oʻzbekiston Respublikasiga kirish yoxud chegaradan oʻtish uchun javobgarlik belgilangan. Bu huquq normasining dispozitsiyasi — hukumatning ruxsatisiz yoki qalbaki hujjatlardan foydalanib yoinki buning uchun belgilangan chegara punkti orqali oʻtmay, davlat chegarasidan noqo-nuniy oʻtishning taqiqdanganligidir.

Dispozitsiya — shu xulq-atvor qoidasining oʻzi. Masalan, Oʻzbekiston Respublikasi Oila kodeksiga muvofiq, ota-onalar oʻz farzandlarining sogʻligʻi, jismoniy, ruhiy, maʼnaviy va axloqiy kamoloti haqida gʻamxoʻrlik qilishga majburdirlar.

Sanksiya — huquq normasini bajarmaganlik uchun davlat organlari qoʻllaydigan majburlov chorasi. Sanksiyaning turlari hayfsan, jarima, ozodlikdan maxrum etish va boshqalar boʻlishi mumkin.

Huquq tizimi va tarkibi. Huquq— ichki yaxlitligi va oʻzaro muvofiqligi bilan ajralib turadigan muayyan tizim.

Huquq tizimi katta tarkibiy qismlar boʻlmish huquq tarmoqlariga boʻlinadi. Davlatdagi ijtimoiy munosabatlarning xilma-xilligi tarmoklarga boʻlishning asosini tashkil etadi. Aynan shu munosabatlar huquqiy boshqaruvning predmetini tashkil etadi. Ijtimoiy munosabatlarning har bir maʼlum turi (oila, mehnat munosabatlari va h.k.) tegishli huquqiy normalar bilan tartibga solinadi. Bu normalar huquqiy tartibga solish predmetiga koʻra (yaʼni ijtimoiy munosabat-larning maʼlum turiga koʻra) huquq tarmoklariga boʻlingan.

Huquq tarmogʻi jamiyat hayotining maʼlum sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi oʻzaro bogʻliq yuridik normalar yigʻindisidir.

Har bir tarmoqning huquqiy tartibga solish predmeti oʻz xususiyatlariga ega. Bu esa ushbu munosabatlardagi huquqiy tartibga solishning oʻziga xos jihatini

belgilaydi. Huquqiy tartibga solish usuli, huquqtizimini tarmokdarga bo'lish-ning qo'shimcha asosidir.

Huquqiy tartibga solish predmeti — ushbu huquq tarmog'ining normalari ta'sir o'tkazadigan munosabatlar, huquqiy tartibga solish usuli esa — ushbu ta'sir o'tkaziladigan vosita.

O'zbekiston huquq tizimi huquqning quyidagi asosiy tarmokdarini o'z ichiga oladi: konstitutsiyaviy huquq; ma'muriy huquq; fuqarolik huquqi;

jinoyat huquqi; er huquqi; agrar huquq; mehnat huquqi; ijtimoiy ta'minot huquqi; ekologik huquq; moliyaviy huquq; fuqarolik-protsessual huquq;

jinoyat-protsessual huquq; xo'jalik-protsessual huquq va boshqalar.

Konstitutsiyaviy, ma'muriy, fuqarolik va jinoyat huquqi asosiy huquq tarmoqlari deb hisoblanadi.

Yuqorida sanab o'tilganlarning dastlabki o'ntasi moddiy huquq tarmog'i bo'lsa, keyingi uchta protsessual huquq tarmog'idir.

Bulardan tashqari yana bir qancha huquq tarmoqlari mavjud: masalan, er huquqi, qishloq xo'jalik huquqi, ijtimoiy ta'minot huquqi va h.k.

Huquq tizimida ikkita huquqiy makonni ajratib ko'rsatish mumkin: ommaviy huquq va xususiy huquq. Ommaviy huquqdavlat bilan fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Bu hokimiyat va bo'ysunish munosabatlaridir. Ommaviy huquq doirasiga konstitutsiyaviy, ma'muriy, jinoyat, jinoyat-protsessual, soliq huquqi sohalari kiradi.

Xususiy huquq o'zaro majburiyatlar asosida huqukdarga ega bo'luvchi sub'ektlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi, bu erda munosabat ishtirokchilari tengdirlar. Xususiy huquq doirasiga fuqarolik, mehnat va oila huquqi sohalari kiradi. Huquqning ommaviy va xususiy huquqqa bo'linishi qadimgi Rim huquqi davridan buyon mavjud bo'lib, bunga qariyb ikki ming yilcha bo'lgan.

Huquq instituti huquq tarmog'i tarkibidagi ma'lum munosabatlarni tartibga soluvchi yuridik normalar yig'indisidir. Huquq tarmog'i huquqi institutlaridan tashkil topgan. Masalan, konstitutsiyaviy huquqinson va fuqaroning huqukdari va

erkinliklari, prezidentlik, hukumat kabi institutlarni o'z ichiga oladi. Fuqarolik huquqi esa mulk xuquqi, majburiyat huquqi, mualliflik huquqi, meros huquqi kabi institutlarni qamrab oladi.

Davlatning ichki (milliy) huquq tizimidan tashqari, xalqaro huquq tizimi ham mavjud. Uning prinsiplari va normalari davlatlar, xalqaro tashkilotlar va ushbu huquqning boshqa sub'ektlari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

Xalqaro huquq tizimi bir necha tarmoklardan tashkil topgan bo'lib, misol tariqasida quyidagilarni sanab o'tish mumkin: xalqaro tashkilotlar huquqi, xalqaro xavfsizlik huquqi, diplomatiya va konsullik huquqi, xalqaro dengiz huquqi va boshqalar.

O'z navbatida, xalqaro huquqtarmoklari institutlardan tashkil topgan. Masalan, xalqaro dengiz huquqi hududiy havzalar, ochiq dengiz, quruklik erlari va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Huquqning manbai deganda, umumiy ma'noda huquqning ifoda etilish shakli tushuniladi. Har qanday ijtimoiy hodisa kabi huquq ham ma'lum shaklda o'z ifodasini topadi. Huquq shaklini tahlil etish xalq irodasini qonun darajasiga qanday usullar bilan ko'tarilganligini anglashga ko'maklashadi. Huquq shakli, davlat irodasining hamma uchun majburiylik usuliga qarab belgilanadi. SHunga qarab, huquqning to'rtta tarixiy shakli mavjud: huquqiy odat, yuridik pretsedent, normativ-huquqiy akt va normativ shartnoma.

Odat – doimiy takrorlanishi natijasida kishilar ongida shakllangan xulq-atvor qoidasi. Jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi manbalar tizimida odat va huquqiy odatni farqlash lozim. Kundalik turmushdagi barcha odatiy qoidalar ham huquqiy odat sifatida shakllanavermaydi. Huquqiy odat huquqning tarixan tarkib topgan dastlabki manbai bo'lib, davlat paydo bo'lguniga qadar insonlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solgan.

Huquqiy odat – uzoq davr mobaynida amalda bo'lishi natijasida shakllangan va davlat tomonidan umummajburiy qoida sifatida tan olingan yurish-turish qoidasidir.

Mamlakatimiz misolida oladigan bo'lsak, O'zbekistonning mustaqillikkacha bo'lgan davrida «Navro'z», «Qurbon hayiti», «Ro'za hayiti» kabi diniy bayramlar odat tarzida, ayrim hollarda yashirin ravishda o'tkazilar edi. O'zbekiston mustaqilligini qo'lga kiritgach, yo'qotilgan milliy va ma'naviy qadriyatlarni tiklash maqsadida Respublika Prezidentining tashabbusi bilan «Navro'z», «Qurbon hayiti» va «Ro'za hayiti» kabi milliy qadriyatlarimizni rasmiy ravishda bayram sifatida e'tirof etib, shu kunlarni dam olish kunlari, deb e'lon qildi va mehnat qonunchiligida dam olish kunlari sifatida belgilab qo'yildi. Mamlakatimizdagi ayrim odat qoidalari, nafaqat huquqiy odatga, balki umummajburiy bo'lgan xulq-atvor qoidasiga aylantirildi. Yuridik pretsedent huquq shakli (manbai) sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Yuridik pretsedent deb, ma'muriy yoki sud organining muayyan ish bo'yicha chiqarilgan yozma yoki og'zaki qarorini, kelgusida xuddi shunga o'xshash ishlarni ko'rib chiqishda asos sifatida qo'llanishiga aytiladi. Huquq ijodkorlik faoliyatining bevosita mahsuli – turli-tuman normativ-huquqiy hujjatlardir. Bunday hujjatlar huquq ijodkorligi sub'ektlarining yuridik normalarini ifodalaydi. O'zbekiston Respublikasida huquqni ifodalashning (bayon etishning) asosiy manbai, shakli normativ-huquqiy hujjatlar hisoblanadi. Normativ-huquqiy hujjatlar davlat tomonidan o'rnatiladigan yoki ma'qullanadigan huquqiy hujjatlarning alohida rasmiy turidir. Normativ-huquqiy hujjat deganda, davlat vakolatli organlarining ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan umummajburiy tusdagi qoidalarni o'rnatuvchi, o'zgartiruvchi yoki bekor qiluvchi huquq ijodkorlik hujjati tushuniladi. Huquqning normativ hujjat shakli demokratik huquqiy jamiyat sharoitida mamlakat xo'jalik, siyosiy, madaniy va ma'naviy hayotiga davlat yo'li bilan rahbarlik qilishning eng maqbul shaklidir. Normativ-huquqiy hujjatlar ularni chiqaradigan davlat organlarining mavqei, hujjatlarning yuridik kuchiga ko'ra quyidagi turkumlarga bo'linadi:

- qonunlar (Konstitutsiya va joriy qonunlar);
- Prezident farmonlari, qaror va farmoyishlari;

- Hukumat qaror va farmoyishlari;
 - davlat va xo‘jalik boshqaruv organlarining qaror, buyruq va yo‘riqnomalari;
 - mahalliy vakillik va ijroiya organlarining qarorlari va farmoyishlari.
- Ijtimoiy munosabat ishtirokchilari o‘rtasida o‘zaro aloqalarni tartibga soluvchi manba sifatida normativ shartnomalar alohida mavqega ega.

Normativ shartnoma deb ikki yoki undan ortiq sub’ektlar o‘rtasida tuziladigan, ularning huquq va majburiyatlarini o‘rnatadigan, o‘zgartiradigan va bekor qiladigan, og‘zaki yoki yozma shaklda ifodalangan va tuzilgan bitimga aytiladi.

Normativ shartnomalar huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi boshqa manbalardan farqli o‘laroq o‘ziga xos xususiyatlarga egadir. Normativ shartnomalar ikki yoki undan ortiq sub’ektlar o‘rtasida, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va boshqa muayyan bir sohalarda tuziladi.

1.3. Axloq va huquq o'rtasidagi farqlar va o'zaro bog'liqlik.

Axloq ijtimoiy ong shakllari bilan bevosita bog'liq va aloqadorlikdadir.

Axloqiy talab huquqiy qonun-qoidalarda o'z aksini topadi. Muayyan jamiyatda huquqiy qonun-qoidalar o'sha mintaqa xalqi tomonidan ishlab chiqilgan axloqiy aqidalar, tamoyillar, me'yorlar, shuningdek, nisbatan umumiy xususiyatga ega bo'lgan urf-odatlar zahirida vujudga keladi. Axloq bilan huquq, garchand, bir ildizga ega bo'lsa-da, ularning jamiyat axloqiy hayotini boshqaruv usuli har xildir: axloq asosan tushuntirish, pand-o'gitlar vositasida ish ko'rsa, huquq majburiy usul, jazo choralari orqali ish olib boradi.

Axloq, huquqqa nisbatan ancha keng qamrovlidir. Chunonchi, huquqiy qonunlar tuzumga, muayyan shaxs va yosh doirasidagi kishilarga tadbiq etilsa, axloqiy qoidalar, hikmatlar, pand-o'g'itlar, barcha tuzilmalar hamda turli yoshdagi kishilarga birdek taaluqli bo'ladi. Huquqiy me'yorlar aniq manzilni taqozo etsa, axloqiy qoidalar esa mavhumligi va umumiyligi bilan ajralib turadi. Axloqning siyosat bilan aloqasi nihoyatda qadimiy, ilk davlat yuzaga kelgandan buyon mavjuddir. Siyosat davlat faoliyatida foydalaniladi va bu faoliyatning bosh yo'nalishini tashkil qiladi. Siyosiy jamiyat uchun kurashda, muayyan siyosiy tartibni va uning iqtisodiy negizlarini himoya qilishni asoslab berish va mustahkamlashda juda muhim qurol bo'lib xizmat qiladi.

Qadimgi Rim huquqshunoslaridan biri Ulpianing ta'kidlashicha «huquqni o'rganuvchi, avvalo huquq (ins) so'zining kelib chiqishini yaxshi bilmog'i kerak». «Huquq» odil sudlov (iustitia) so'zidan olingan bo'lib adolat va yaxshilik haqidagi fandır.

Axloq jamiyat paydo bo'lishi bilan birgalikda mavjud bo'ladi. Huquq esa jamiyatning tadrijiy rivojlanishining ma'lum bosqichida paydo bo'ladi. Huquq tushunchasi amerikalik huquqshunos olim Loures Fredmanning tarifiga ko'ra «lahza kabi o'tkinchi, suv pufagi kabi nobarqaror, chinni idishlar kabi nozik, benihoya ko'p qiralarga ega bo'lgan» tushunchadir. Shuning uchun ham huquq va axloq munosabatlari, huquqning ijtimoiy normalar tizimida tutgan o'rni haqida gap

ketar ekan huquqning falsafiy mohiyatini yanada mukammalroq bilish kerak bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan tariflar axloq va huquq o'rtasidagi farqlarni keltirib chiqaramiz. Ular quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. Huquq normalari davlat tomonidan belgilangan va ruxsat etilgan bo'ladi, axloq normalari (ezgulik va yovuzlik, adolat va jaholat, burch va majburiyat kabilar) esa davlatning yordamisiz, hech qanday majburlov choralarisiz shakllanadi. Bu erda faqat burch va majburiyatning huquqqa tegishli tomonlari bor. Masalan, O'zbekiston respublikasi Konstitutsiyasining 9-bobi «Fuqarolarning burchlari» deb nomlanadi.
2. Jamiyatdagi yozilmagan xulq atvor qoidalarining majmuidan iborat bo'lgan axloq normalaridan farqli ravishda huquq normalari huquqiy manbalarda – qonun, qaror, farmon va boshqalarda yozib quyiladi, yani huquq normalari yozma shaklda bo'ladi.
3. Huquq normalari zarur hollarda davlatning majburlov kuchi orqali, axloq normalari esa jamiyatning fikri orqali amalga oshadi.
4. Axloq normalari ijtimoiy munosabatlarning kengroq doirasini (do'stlik, burch, vijdon, hatto sevgini ham) tartibga soladi. Huquq esa ijtimoiy munosabatlarning tarqoq doirasini tartibga soladi.

Huquq va axloq o'rtasida farqlar bo'lishiga qaramay, ular bir – biriga chambarchas bog'liqdir.

Huquq va axloq bir – birini to'ldirib turadi. Huquq tasirchan bo'lishida axloqqa yordam beradi, axloq esa huquqiy normalarning negizi bo'lib xizmat qiladi. Qonun, huquq nimani taqiqlasa, axloq ham shu narsalarni taqiqlaydi. Bezori, o'g'ri, zo'ravon, giyohvand moddalarni istemol qiluvchi, tarqatuvchilar, vatanga xoinlik qilish nafaqat huquq normalari bilan taqiqlanadi, balki shu bilan birga vijdon hukumiga havola qilinadi, axloq normalari taqiqlaydi, jamoatchilik qahriga duchor bo'ladi.

Demak, huquq va axloq bir – birig uzviy bog'lik ekan. Huquq axloqiy tarbiya berishda ham bu ikkala tushunchasini bir – biridan ajratgan holda bola tarbiyasiga

tasir qilish mumkin emas. Chunki, yuqorida keltirilgandek huquq axloq qoidalari asosida vujudga kelgan shundan kelib chiqqan holda, huquqiy axloqiy tarbiyaga quyidagicha tarif berishimiz mumkin.

Huquqiy axloqiy tarbiya, umumiy tarbiyaning tarkibiy qismidir.

Huquqiy axloqiy tarbiya – bu shaxsga nisbatan huquqiy – axloqiy ongni, axloqiy va huquqiy ko'rsatmalarni, qonunga itoatkorlik, xulq atvori ko'nikmalari va odatlarini shakllantiruvchi, jamiyat taraqqiyotining manaviy vositalarini ta'minlovchi o'zaro bog'langan, uyushgan, bir tuzim, aniq maqsadni ko'zlagan holdagi tasvir ko'rsatilishidir.

Ma'lumki, huquq ijtimoiy ong shakllaridan biridir.

Axloqiy ong – shaxsning manaviy hayot kechirish usuli, jamiyat taraqqiyotining ma'naviy vositalaridan biridir, - deb yuqorida ham takidlab o'tgan edik. Huquqiy ong – bu jamiyatdagi ommaviylashgan huquqiy, shuningdek kishilarning xulq atvoriga, ijtimoiy muasasalar qadriyatlariga huquq haqidagi bunday tasavvurlar nuqtai nazaridan munosabatini ifodalaydigan nazariyalar, g'oyalar, qarashlar va tasavvurlar majmuidir.

Demak, huquqiy axloqiy ong ham bir – biriga uzviy bog'liq va bir birini to'ldiruvchi ijtimoiy ong shakllaridir.

Huquqiy axloqiy ongda quyidagi besh elementni ajratib ko'rsatishimiz mumkin, huquq va axloqni bilish (va uning qoidalariga rioya qilish); huquqiy axloq Haqidagi tasavvur; amaldagi huquqqa va axloqiy normalarga munosabat; huquqiy axloqqa qo'yiladigan talablar; huquqiy axloqqa ko'rsatmalarning ijro etilishiga munosabat. Ularning hammasi bir - biri bilan o'zaro chambarchas bog'langan va o'zaro aloqadorlikdadir. Shu bilan birga ular o'ziga xos shakllanish xususiyatiga ega va huquqiy axloqiy ong faoliyatida turli rollarni o'ynaydigan har xil elementlar bo'lib, buni, albbatda huquqiy – axloqiy tarbiya jarayonida Hisobga olish zarur.

Huquq va axloqni bilish huquqiy – axloqiy meyorlarni bilishni anglatadi. Bunday bilish, yoki tegishli huquqiy – axloqiy qoidalarni bevosita o'rganish o'qish, radio orqali tinglash va shu kabilar natijasida, u yoki bu bilan bevosita

tanishishi natijasida egallanadi. Masalan, uni kishilarning hikoyalardan yoki muayyan hayotiy vaziyatlarda huquqiy axloqiy qoidalarni amaliy o'zlashtirib olish natijasida jamlash mumkin. Ushbu ikkita usul bir – birini to'ldirib turadi.

Huquq va axloq haqida bilish boshqa omillar bilan bar qatorda huquq va axloq haqidagi tasavvurlarning shakllanishiga ko'maklashadi. Bunday tasavvur umuman va aynan muayyan holda qonuniyligi va uning huquq va axloqqa zidligi, oqibatlarini qanday bo'lishi haqidagi tasavvurdir. Xolbuki, kishi huquq va axloqni bilmasa, u haqda tasavvurga ham ega bo'lmaydi. Huquqiy – axloq haqidagi tasavvurlar – avvalo axloq meyorlari, siyosat va boshqacha qarashlar ta'sirida shakllanadi, chunki bizning jamiyatimizda siyosiy, axloqiy, huquqiy talablarning birligi mavjud. Agar shaxsning siyosiy va manaviy ongi to'g'ri shakllantirilgan bo'lsa, unda uning huquqiy tasavvurlari ham amaldagi qonun mazmuniga yaqin bo'ladi deb, hisoblash uchun hamma asoslar mavjud.

Ana shuning uchun ham tarbiyaga nisbatan kompleks yondoshuvni qo'llash zarurligini nazarda tutish ayniqsa muhimdir. « O'z xalqiga, uning ananalariga, tili va madaniyatiga muxabbat va xurmatni tarbiyalamasdan turib, . . . haqiqiy insonni....tarbiyalash mumkin emas», ayni bir paytda shuni unutmaslik kerakki, huquqiy tasavvurlarni faqat axloq meyoridan keltirib chiqarish, huquqiy va axloqiy tarbiyalarning bir xillashtirib, hatti harakatlarning axloqiy va huquqiy jihatdan baholanishi o'rtasidagi farqning huquqqa zid yoki shunchaki axloqqa yot bo'lgan xulq - atvor o'rtasidagi tafovutning tushunilmasligiga olib kelishi mumkin.

Amaldagi huquqiy axloqiy munosabat va huquqiy axloqqa qo'yiladigan talablar ham huquqiy axloqiy me'yorlar, siyosiy va boshqacha qarashlar, shuningdek ijtimoiy amaliyotning umumiy ta'siri ostida shakllandi. Bunda huquqiy axloqqa munosabat va o'sha qo'yiladigan talablar turlichadir. Masalan turli shaxslar huquqiy axloqiy me'yorga nisbatan norozi munosabatlar bildirgani holda ularning huquqiy axloqiy talablari har xil bo'lishini; birovlar uning qatiyalashtirilishini, boshqalar esa yumshashini talab qilishi mumkin.

Axloq milliy istiqlol g'oyasi bilan ham o'zaro aloqadorlikda bo'lib, uning ildizi qadimgi tarixga borib taqaladi. Milliy mafkura tizimida axloqiy g'oyalar

albatta o'z o'rniga ega bo'ladi, axloqiy g'oyalar zahirida milliy mafkura g'oyalari yotadi.

Xulosa. Axloq ijtimoiy ong shakllaridan bo'lib, ijtimoiy taraqqiyotining muayyan davrida zaruriyat asosida paydo bo'lgan ijtimoiy tasodifiyatdir. U insonlarni talab va ehtiyojlaridan kelib chiqdi. Zamon, davr o'tishi bilan axloqning tamoyillari, tushunchalari, qonun-qoidalar ham takomillashib bordi. Chunki, axloqning mazmunida ixtiyor erkinligi va axloqiy tanlov muhim rol o'ynaydi. Bu esa axloqiy tuzilmalarni hayotga tadbiq qilishni talab qiladi. Axloq huquq va ma'naviyat bilan chambarchas bog'liqdir. Ma'naviyat va huquq axloqsiz vujudga kelmaydi. Axloq huquq va ma'naviyatning o'zagi hisoblanadi. Axloq singari huquq va ma'naviyat ham boshqa ong shakllari bilan o'zaro aloqadorlikdadir.

Huquq bilan axloq o'zaro mahkam bog'liq bo'lib, bir-birini to'ldirib turadi. Huquq ta'sirchan bo'lishida axloqqa yordam beradi, axloq esa huquqiy normalarning negizi bo'lib xizmat qiladi. Qonun, huquq nimani taqiqlasa, axloq ham shuni taqiqlaydi. Bezori, o'g'ri, zo'ravon, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchi, tarqatuvchilar, vatanga xoinlik qilish nafaqat huquq normalari bilan taqiqlanadi, balki shu bilan birga vijdon hukmiga havola qilinadi, axloq normalari taqiqlaydi, jamoatchilik qahriga duchor bo'ladi.

O'zbekistonda huquqiy– demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatni shakllantirish davrida ming yillar davomida shakllangan milliy axloqimiz normalari hamda mustaqillikdan keyingi yillar mobaynida vujudga kelgan huquqiy normalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

II - BOB. HUQUQIY – AXLOQIY TA'LIM – TARBIYA VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

2. 1. Huquqiy va axloqiy ta'lim –tarbiya, uning mohiyati, o'qitish metodlari

Insonning axloqiy hayoti uning axloqiy tarbiyasi bilan chambarchas bog'liq. Zero, axloqiy tarbiya insonning shaxs bo'lib etishuvini ta'minlaydigan uzluksiz jarayonlardan biri. Unda individ axloqiy qadriyatlarni anglab etadi, o'zida axloqiy fazilatlarni barqaror etadi, axloqiy tamoyillar va me'yorlar asosida yashashga o'rganadi.

Axloqiy tarbiya insoniyat tarixi mobaynida ikki muhim masalaga javob izlaydi: bulardan biri-qanday yashamoq kerak, ikkinchisi –nima qilmog'-u, nima qilmaslik lozim. Ana shu savollarga javob izlash jarayoni axloqiy tarbiyaning amaliy ko'rinishidir.

Shuni ham alohida ta'kidlash joizki, axloqiylik insonda faqat axloqiy tarbiya vositasidagina vujudga keladi, degan moddiyatchilik qarashlari ko'p yillar mobaynida hukmronlik qilib keldi. To'g'ri, axloqiy tarbiyaning ahamiyati nihoyatda katta. Lekin axloqiylik insonga uning insoniylik belgilaridan eng muhimi sifatida ato etilgan ilohiy ne'mat. Shu ma'naviy ne'mat-asosni axloqiy tarbiya yordamida takomillashtiramiz. Aks holda maymun va itlardan ham axloqiy mavjudot tarbiyalab yetkazishimiz mumkin bo'lar edi.

Axloqiy tarbiya inson farzandini takomilga, komillikka yetkazish yo'llaridan biri. Uning vositalari ko'p. Ularning bir qismi an'anaviy tarbiya vositalari bo'lsa, yana bir qismi zamonaviy vositalar. Odatda, har ikki turdagi vositalardan foydalaniladi. Chunonchi, maktabgacha bo'lgan axloqiy tarbiyada ertak va rivoyatlar vositasidagi an'anaviy tarbiya bilan o'yinchoqlar va o'yinlar vositasidagi zamonaviy tarbiya muvaffaqiyatli qo'llaniladi; bunda bola qizg'anchilik, g'irromlik qilmaslikka halol bo'lishga o'yinlar yordamida da'vat etiladi. Bolalar axloqiy tarbiyasida televideniye, radio, qo'g'irchoq teatri, kino san'ati katta rol o'ynaydi.

Umuman, axloqiy tarbiyaning eng kuchli vositasi –san’at. Bu vosita aholining barcha tabaqasini, turli yoshdagi shaxslarni qamrab oladi. Ayniqsa, san’atning badiiy adabiyot turi keng qamrovli. Ertakdan tortib romangacha bo’lgan janrlarda chop etilgan asarlar shaxsning axloqiy shakllanishida ulkan xizmat ko’rsatadilar. Ular orqali kitobxon tarbiyalanuvchi sifatida ezgulik va yovuzlik nimaligini badiiy idrok etadi; ideal tanlashda ham ularning ahamiyati katta. Bundan tashqari, badiiy adabiyotning bevosita axloqiy tarbiyaga mo’ljallangan hikoyatlar, rivoyatlar va nasihatlar majmualari borki, biz ularni, avval aytganimizdek, pandnomalar deb ataymiz: “Kalila va Dimna”, “Qobusnoma”, “Guliston”, “Zarbulmasal” singari bunday mumtoz asarlar an’anaviy axloqiy tarbiya vositasi sifatida necha asrlardan buyon qanchadan-qancha avlodlarga xizmat qilib keldi, bundan buyon ham shunday bo’lib qolajak.

Axloqiy tarbiyaning barcha zamonlar uchun dolzarb bo’lgan yo’li, bu –namunaviylik tamoyili. Oilada, avvalo, yuqorida aytilganidek, ota-ona bolaga axloqiy namuna bo’lishi kerak. Maktabda va oliy o’quv yurtida muallimlarning ta’lim berish usullaridan tortib, to “mayda-chuyda” xatti –harakatlarigacha o’z shogirdlari tomonidan shaxsiy namuna tarzida qabul qilinishini nazardan qochirmaslik lozim. Ustoz-shogirdlik munosabatlaridagi muomala odobi halollik, rostguylik yoshlar axloqiy tarbiyasi shakllanishini ta’minlovchi omillardandir.

Hozirgi paytda axloqiy tarbiyaning eng kuchli zamonaviy vositasi sifatida televideniyani keltirish mumkin. U deyarli barcha san’at turlarida yaratilgan asarlarni ekranlashtirish va ekranda ko’rsatish imkoniga ega. Bundan tashqari, unda maxsus axloqiy tarbiyaga bag’ishlangan muntazam ko’rsatuvlar ham berib boriladi. O’zbek tilidagi “Otalar so’zi- aqlning ko’zi”, “Rivoyat”, “Oqshom ertaklari” singari ko’rsatuvlar bunga misol bo’la oladi. Shu bois televideniye hech qachon yengiltaklikni targ’ib etuvchi qo’shiqlar, salkam pornografik reklamalar, inson qalbini qattiqlashtiradigan “o’ldir-o’ldir”lardan iborat videofilmlar korxonasi bo’lib qolmasligi kerak.

Axloqiy tarbiyaning aqliy-ma’naviy va jismoniy tarbiya bilan qo’shib olib borilishi maqsadga muvofiq. O’shanda jamiyatimiz har jihatdan kamol topgan

fuqarolik jamiyatiga aylanadi. Mamlakatimizda buning uchun barcha huquqiy-ijtimoiy shart-sharoitlar yaratilgan.

Huquqiy va axloqiy me'yorlar har doim ham inson hayotida muhim bo'lib kelgan. Hayotimizning har bir jabhasini boshqarish, tartibga solish va fuqarolar bilan munosabatga kirishishda axloqiy hamda huquqiy qoidalarning o'rni yuqoridir. Har bir o'quv faoliyatining maqsadi, mazmuni hamda ijodiy tashkil etilishi ikki tomon o'quv faoliyatining ijobiy bo'lishiga olib keladi.

Huquqiy va axloqiy tarbiya murakkab va ko'p qirrali hodisadir, uni bir yoqlama ta'riflash qiyin. Huquqiy va axloqiy tarbiya – bu shaxsga nisbatan huquqiy va axloqiy ongni, huquqiy va axloqiy ko'rsatkichlarni, qonunga itaotkorlik xulq – atvor kyanikmalarini va odatlarini shakllantiruvchi, jamiyat taraqqiyotining ma'naviy vositalarini ta'minlovchi, o'zaro bog'langan, uyushgan bir tizimni, aniq maqsadni ko'zlagan holdagi ta'sir ko'rsatilishidir.

Shuni unutmaslik kerakki, huquqiy va axloqiy tarbiya berish huquqiy ta'limdangina iborat emas. Maktablarda huquqiy va axloqiy tarbiya tizimi va vakili o'quvchilarning huquqiy va axloqiy tarbiyasiga har tomonlama yondoshishdan kelib chiqadi. Xuddi shu yerda huquqiy va axloqiy tarbiyaga elementar yondoshishdan voz kechish zarurligini aytib o'tishimiz zarur.

Aholi huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish borasida O'zbekiston davlati bugungi kunda sezilarli faoliyatini amalga oshirib kelmoqda. Bugungi kunga kelib huquqiy ta'lim-tarbiyaga bo'lgan munosabat ijobiy tarzda o'zgarib, alohida tizim yo'nalishiga ega bo'ldi. Chunonchi, 1997 yil 25 iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning huquqiy tarbiyani yaxshilash, aholining huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish, huquqshunos kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, jamoatchilik fikrini o'rganish ishini yaxshilashga qaratilgan Farmonining qabul qilinishi bu soha tizimining takomillashtirishi hamda moddiy texnika resurslari bilan ta'minlanishiga yordam beradi. "Jamiyat huquqiy madaniyati yuksaltirish" Milliy Dasturiga muvofiq

davlatning huquqiy ta'lim-tarbiya sohasidagi davlat siyosati quydagicha belgilangan:

- Inson huquqlari va erkinliklari ustuvorligi;
- Konstitutsiya va qonunning ustunligi;
- Demokratiyaga asoslanganlik;
- Ijtimoiy adolat;
- Ilmiylik;
- Uzluksizlik;
- Huquqiy axborotning hamma uchun ochiqligi;
- Huquqiy ta'lim va tarbiya birligini tashkil etadi;

Biz ko'p yillik tajribamiz jarayonida ko'plab huquqshunos va pedagog olimlarning ilmiy asar va risolalarini tahlil etganimizda, huquqiy ta'lim-tarbiya aynan mustaqillik yillarida o'ziga xos takomillashganligi va ta'limning barcha bosqichlarida o'qitilayotganligiga amin bo'ldik. Aytilganlar asosida quydagi xulosalarni keltirib o'tamiz:

- Bugungi kundagi huquqiy ta'lim tarbiya o'tmishda shakllangan milliy-ma'naviy qadiryatlar hamda allomalar ijodidan kengroq foydalanishni taqozo etadi.
- Umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishda ular ruhiyati hamda ichki motivatsiyaga ijodiy ta'sir etuvchi ta'limning didaktik vositalaridan kengroq foydalanishni ta'minlash lozim.
- O'quvchi yoshlarda dunyo qonunchilik tizimida shakllangan muhim normalar hamda ilmiy qonunchilikdagi huquqiy me'yoriy qoidalarni bir-biri bilan qiyoslash hamda ijodiy tahlil etish ko'nikmasini shakllantirish kerak.

Huquqiy va axloqiy ta'lim - tarbiya berishni dastlab asosiy qonunimiz Konstitutsiyani o'rgatish, "Odobnoma", "Vatan tuyg'usi", "O'zbekiston davlati va huquqi asoslari", "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqi" darslarini o'qitish orqali amalga oshiramiz.

Bizga ma'lumki umumta'lim maktablarining 1-4 sinflarida "Odobnoma" darsi o'tiladi. Yil davomida bu fanga 34 soat ajratilgan bo'lsa, shundan 10 soati "Konstitutsiya alifbesi" ga ajratilgan. Bu fan tarkibidagi 1-dars huquqiy bilim berishdan boshlanadi. Sababi I - bo'lim "O'zbekiston – ozod va obod diyor" deb atalib, 1-dars: 1-sentabr – Mustaqillik kuni (1 soat)ga bag'ishlangan, shuningdek, keying mavzularda ham huquqiy axloqiy ta'lim – tarbiya uyg'unlashib ketgan. Masalan, 2-3-mavzular "Vatan mehri" , "O'zbekiston jannat yurt" deb atalib, unda o'quvchilarga Vatan, uni sevishtirish, ardoqlash, unga sodiqlik, vatanparvarlik kabi huquqiy axloqiy ta'lim – tarbiya beriladi.

Shuningdek, umumta'lim maktablarining 2- sinflaridagi "Odobnoma" fanidagi II - bo'lim "Odob – inson uchun oftob" deb atalib, undagi 8-9 darslar Odob – salomdan boshlanadi, salomlashishning o'ziga xos xususiyatlari, kim birinchi salom berishi kerak, salomlashishning o'ziga xos qoidalari, odob – go'zallik ramzi kabi masalalarni o'rgatsa, 10 -13 darslar "Odob – insonning husni " deb ataladi va u yerda biz 2 soat davomida o'quvchilarda o'quvchining odobi, maktab qoidalari, kiyinish odobi, kattaga hurmatda-kichikka izzatda bo'lish, dasturxon atrofida o'tirish va ovqatlanish odobi kabi huquqiy axloqiy ta'lim – tarbiyani shakllantiramiz.

3-sinfdagi I - bo'lim," Vatan muqaddas" deb atalib, 1-3-dars: "O'zbekiston - Mustaqil davlat" degan mavzu bilan boshlanib, unga 3 soat vaqt ajratilgan bo'lib, biz bu mavzular orqali o'quvchilarda O'zbekiston Respublikasi – Mustaqil davlat ekanligi, Islom Karimov – O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti bo'lganligini, uning huquqiy asoslari haqidagi ilk tushunchalarni va Konstitutsiyamizda bolalar huquqi, ularning O'zbekiston Respublikasi fuqarosi ekanligi, buning kafolatlari haqidagi dastlabki huquqiy – axloqiy tushuncha, ko'nikmalarni shakllantirishimiz kerak.

Shuningdek, uzluksiz ta'limda huquqiy axloqiy ta'limning uzviy olib borilishini biz 5-6- sinflarda o'tiladigan "Vatan tuyg'usi" va "Konstitutsiya olamiga sayohat" fanlarida ko'rsak bo'ladi. Jumladan, 6-sinflardagi "Vatan

tuyg'usi" darsining 22- mavzusi "Til – ma'naviyat ko'zgusi" deb atalib, unga 1 soat vaqt ajratilgan. Biz bu dars orqali o'quvchilarda o'zlikni anglash, avlodlar o'rtasidagi ruhiy bog'liqlik til orqali namoyon bo'lishini, "Davlat tili to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonuni" haqida tushunchalar berib, ularda ona Vatanga, tilga, millatimizga muhabbat, sodiqlik, qonunlarga hurmat tuyg'ularini uyg'otish bilan birga, ularda huquqiy ong va madaniyatni shakllantiramiz.

Bu fanlar orqali o'quvchilarni huquqiy va axloqiy tarbiyasini oshirish uchun to'la imkoniyat bor. Lekin bu bilan cheklanib qolmasligimiz lozim. Milliy istiqlol g'oyasi asosida huquqiy va axloqiy tarbiyani shakllantirish har bir fan tarkibida, qolaversa tarbiyaviy soatlarda, shuningdek bayramlarda ham amalga oshirishga erishmog'imiz lozim.

Ta'lim berish, har bir mavzuning mag'zini talabalar ongiga etkazish mahorati o'qituvchidan ko'p izlanishni, ko'p mutola qilishni talab qiladi. Bilim ummoniga boy bo'lgan ustozgina mavzuni mag'zini talabalar ongiga mohirona etkaza oladi. Mavzuning maqsadiga qarab, ta'lim metodlarini tanlay biladi.

Ta'lim metodlaridan oqilona foydalanib, ilmiy dars o'tish, o'quvchilarni hayotda o'z o'rnini topishga, ongning shakllanishiga katta asos bo'lib xizmat qiladi. O'qituvchining ma'lum fan ilmini o'quvchilar ongiga etkaza olish mahorati, shu o'quvchilarni bo'lg'usi hayot yo'llarini tanlashda muhim ahamiyatga ega. Oldin bayon qilganimizdek, ta'limning mohiyati inson kamolotini shakllantirishga xizmat qiladi. Ta'lim metodi ta'limning maqsadi va vazifalariga bog'liq. Metodlar o'quvchilarning yoshiga, ta'limning mazmuniga va funksiyasiga qarab tanlanadi. O'qituvchi o'zining shaxsiy sifatlari: komilligi bilan talabalarga o'rnak bo'lishi, ta'limiy maqsad bilan tarbiyaviy maqsad mutanosibli, fan asoslari va g'oyalarini chuqur bilishi bilan talabalarga o'rnak bo'lishi talab qilinadi.

Talabalar o'zlashtirib olgan bilimlarini imkoniyatlariga qarab sekin-asta amaliyotga qo'llay boshlaydilar. Talabalar bilan bo'lgan muloqotda, ularga bilim berish jarayonida o'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonini samarali boshqarishi lozim.

Ta'lim-tarbiya jarayoni uzviy jarayondir. Ta'lim berish jarayonida tarbiyalayotganligimizni unutmasligimiz lozim. Suxandonlik, kinoyasiz so'zlash, o'qituvchiga xos kiyinish etikasi, fikrni erkin bayon qilish va uni tamasiz etkaza olish xususiyatlari o'quvchilar uchun amaliy ko'rgazma ekanligini unutmaslik kerak. Ta'lim berishda o'qitish metodlari asosiy o'rinni egallaydi.

Metod - yunoncha atama bo'lib, aynan nimagadir yo'l degan ma'noni anglatadi, ya'ni maqsadga erishish yo'lini bildiradi. Metodlar (usullar)ni har qanday muammoni (maqsadni) uzatish va qabul qilish xarakteriga qarab quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- *So'z orqali ifodalanadigan metod;*
- *Ko'rgazmali metod;*
- *Amaliy metod.*

Ta'lim mazmunini o'zlashtirishda o'quvchilarning bilim saviyasi, o'zlashtirish qobiliyati, ta'lim manbai, didaktik vazifalarga qarab, munosib ravishda quyidagi metodlar qo'llaniladi:

- o'qitishning ma'ruza (suhbat) metodi;
- o'qitishning amaliy ishlar metodi.
- Laboratoriya ishlar metodi.
- Mustaqil ishlar metodi.
- Muammoli evristik modellashtirish metodi.
- Ilmiy tadqiqot metodlari.
- O'qitishning muammoli-izlanish va reproduktiv metodi.
- O'qitishning induktiv va diduktiv metodi.
- o'qitishning nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish metodi.

Metodlar quyidagi guruhchalarni o'z ichiga oladi:

Birinchi guruh metodlari: – so'z orqali uzatish va informatsiyani eshitish orqali qabul qilish metodlari (og'zaki metodlar: hikoya, ma'ruza, suhbat va boshqalar).

Ikkinchi guruh metodlari: – o'quv informatsiyasini ko'rgazmali uzatish va ko'rish orqali qabul qilish metodlari (ko'rgazmali metod, tasviriy namoyish qilish va boshqalar).

Uchinchi guruh metodlari: o'quv informatsiyasini amaliy mehnat harakatlari orqali berish (amaliy metodlar, mashqlar, laboratoriya ishlari, dastur tuzish, pedagogik masalalarni echish, mehnat harakatlari va boshqalar).

Ta'limning rag'batlantirish metodlari:

1. Ta'limga qiziqishni rag'batlantirish metodi.

2. Ta'limga burch va mas'uliyatini rag'batlantirish metodi.

Xuddi shuningdek, ta'limda nazorat va o'zini-o'zi nazorat qilish metodlari quyidagilar.

1. Og'zaki nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish.

2. YOzma nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish.

3. Laboratoriya va amaliy nazorat va o'z -o'zini nazorat qilish metodi.

4. Test nazorati.

Bu metodlardan talabalarda bilish faoliyatini, qabul qilish, anglash va amalda qo'llash faoliyatini shakllantirishda foydalaniladi.

Tushuntirish va uqtirish metodi.

Ushbu tarzdagi metodni qo'llashda o'qituvchi so'z vositasida mavzuni bayon qiladi va tushuntiradi. O'quvchilar esa tinglashadi, eslab qolish, anglab etish orqali uni faol qabul qiladi va o'zlashtiradi

Mavzuning asosini tushuntirish va uqtirishda hikoya usulidan foydalaniladi. O'quv materiallari mazmunini og'zaki bayon qilish, uning asosiy joylarini tushuntirish ko'zda tutiladi. Bu maqsadga erishish uchun, hikoya metodini qo'llash samarali natija beradi. Bu metod orqali mavzuga xizmat qiladigan ma'lumot va voqealarni bayon qilish diqqatni faollashtiradi, xotirada saqlashni jadallashtiradi. Hikoyani bayon qilish, uqtirish metodlarini samarali qo'llash shartlari: rejani qunt bilan o'ylash, mavzuni yoritishning oqilona izchilligini ta'minlash, misollar va hikoyalarni muvaffaqiyatli tanlash, tushuntirish va uqtirishda zaruriy emotsionallikni tanlash darkor.

Hikoya bir necha turga bo'linib, hikoya muqaddima, hikoya bayon, hikoya xulosalarga bo'linib, ular mavzuni yoritishga xizmat qiladi.

Mavzuni tushuntirishda og'zaki bayon qilish, tushuntirish yoki biror bir lavhani ko'rsatish, (illyustratsiya)ni ko'zda tutib, hikoyadan o'zining hajmi kattaligi, mantiqiy qo'yilishi, obrazli isbotlash va umumlashtirish orqali mavzu maqsadiga erishiladi, hikoya qilish mavzuning maqsadini bir qismiga xizmat qiladi.

Ma'ruza matnini tushuntirish va uqtirish informatsiyani og'zaki bayon qilish, uzoq vaqt davomida diqqatni tutib turish, tinglovchilarning fikrlashini faollashtirish usullari, isbotlash, tasniflash, sistemalashtirish, umumlashtirish va boshqa usullaridan foydalaniladi.

Tushuntirish va uqtirish metodi atroflicha o'ylangan fikrlar, savollar yordamida bilim berilib, u o'quvchini faktlar tizimini, yangi tushunchalar va qonuniyatlarni o'zlashtirishga olib keladi.

Ta'limning muammoli-qidiruv metodlari; tizimni so'z orqali ifodalash, ko'rgazmali va amaliyot metodlari yordamida foydalaniladi. Ta'limni muammoli o'qitish jarayonida o'qituvchi talabalarning bilish faoliyatini qo'zg'atadigan, faollashtiradigan, ongni charxlaydigan vazifalar beradi. Talabalar mustaqil holda yoki o'qituvchining yordamida uni echish, hal qilish uchun ijodiy izlanadilar. Muammoli o'qitish yoki muammoli masalalarning echilishini talab qilish o'quvchilarning egallagan ilmiy bilimlariga hosil qilingan ko'nikmalariga asoslangan holda izlansa yoki olingan bilimlarini xotirlasa, bema'lol o'zi echa oladigan qilib tuzilish kerak. Aks holda, masala talabaning ulgurmagan bilimlariga ham asoslanib tuzilsa, u holda talaba o'ziga ishonmay qoladi, o'zidagi bilimga ishonchi yo'qoladi, har qanday ilmiy ta'lim talaba uchun muammolidir, chunki talabaga hozirgacha noma'lum bo'lgan yangilik bilan tanishtiradi. Muammoli o'qitish talabaning fikrlash faoliyatini o'stiradi, har narsani bilishga qiziqish uyg'otadi. Fahm-farosatli, mustaqil ijod qilishga intilish kabi shaxsiy fazilatlarini tarbiyalashga yordam beradi.

Ma'naviy-ijodiy metodlar

Inson ma'naviyatining shakllanishi juda murakkab jarayon. Insonning ma'naviy sifatlarini shakllantirishda oila, atrof-muhit, jamiyat katta rol o'ynaydi. Ota-onaning mehri, atrofdagilarning mehri, ularni olqishlari bolani mustaqil fikrlashga va mustaqil ish boshlashga ishonchini uyg'otadi. Ustozlar, ota-onalar boladagi bu harakatni, ishonchni sezgandan boshlab, ularga sharoit yaratish va ularni to'g'ri yo'naltirishlari lozim. Ota-ona va ustozlar orasidagi tarbiya uzviyligi yoshlarning shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Sen o'zing uddalay olasan, bunga qurbing etadi, deb ishontirish va bu ishonchni "Ma'naviy-ijodiy metod" orqali amalga oshirish mumkin. Ushbu metod uch bosqichda amalga oshiriladi:

a) o'quvchilarda bilishga qiziqishni uyg'ota bilish;

b) o'quvchilarning egallagan bilimiga va tajribasiga asoslangan holda masala qo'yish, hamda ularga suyanib masalalarni tahlil qilish;

v) o'rganish kerak bo'lgan muammo ustida mustaqil fikr yuritib xulosa olishga erishish.

Yuqoridagi bosqichlarni amalga oshirish jarayonida talabalar, insonning boy xazinasini uning o'zida yashiringanligini tushunadilar. Faqat buning uchun o'qituvchi ulardagi qiziqishni, yashiringan iqtidorini anglay bilishi kerak.

Ilm olish, odatiylik, aqlni peshlash, o'z ustida ishlash, hikmatlarni bilish, kamtarlik, ma'rifatli bo'lish kabi fazilatlarga faqat mehnat qilish va bilim olish, o'qib-o'rganish, hayotni kuzatish orqali erishish mumkin.

O'quv ma'ruza metodi: o'quv materialini og'zaki bayon qilishni ko'zda tutadi, hikoya metodidan o'zining hajmi kattaligi, mantiqiy qurilishi, umumlashtirishning murakkabligi bilan ajralib turadi. Ma'ruza butun dars yoki mashg'ulotni band etadi. Hikoya esa faqatgina uning bir qismini egallaydi.

Ma'ruza davomida informatsiyani og'zaki bayon qilish, uzoq vaqt davomida diqqatni tutib turish, tinglovchilarni fikrlarini faollashtirish usullari, argumentlash, isbotlash, tasniflash, sistemalashtirish, umumlashtirish va boshqalardan foydalaniladi.

Suhbat metodi: Og'zaki bayon qilishning asosiy turlaridan biri. Tarkibida eng ko'p qo'llaniladigan samarali usullardan biridir. Ko'pincha bu usul savol-javob

usuli ham deb yuritiladi. Dars berish jarayonida o'tilayotgan mavzu yuzasidan kirish asosiy va yakunlovchi qismlarda suhbat, savol-javob metodi qo'llaniladi. Suhbat metodida atroflicha o'ylangan savollar yordamida o'qituvchi va o'quvchilar orasidagi suhbatni ko'zda tutib, u o'quvchini faktlar tizimini yangi tushunchalar va qonuniyatlarni o'zlashtirishga olib keladi.

Ta'limning ko'rgazmali metodlari: ular shartli ravishda ikkiga bo'linadi.

1. Illyustratsiya metodi: – plakat, xarita, doskadagi rasm, olimlarning portretlari, suratlar va boshqalarni ko'rsatishni ko'zda tutadi.

2. Namoyish qilish metodi – asboblari, tajribalar, texnik qurilmalar, turli tipdagi preparatlarni namoyish qilish bilan bog'liq. Namoyish qilish metodiga bog'liq kinofilmlar va diafilmlar ham kiradi.

Ta'limning amaliy metodlari: yozma mashqlar, laboratoriya tajribalari ta'limning amaliy metodidir.

Quyida biz umumta'lim maktablarining 8-sinflarida o'tiladigan **“O'zbekiston davlati va huquqi asoslari”** fanidan 1 soatlik dars ishlanmasini keltiramiz.

Fan: O'zbekiston davlati va huquqi asoslari. **Sinf:** 8

Mavzu: Huquqiy normalar (20-dars)

Mashg'ulotning texnologik xaritasi va o'tkazilish ishlanmasi

Mavzu:	Huquqiy normalar. (1 soat).
Maqsad va vazifalar	- O'quvchilarda davlat tomonidan belgilangan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalar haqidagi tushunchalarni shakllantirish; - o'quvchilarda huquq va huquqbuzarlik, qonuniylik va qonunbuzarlik tushunchalari haqidagi bilimlarni shakllantirish; - davlatda va jamiyatda belgilangan huquq normalarini tushuntirish orqali qonunlarga rioya etish ruhida tarbiyalash.
O'quv materialini mazmuni	Norma, gipoteza, dispozitsiya, sanksiya.
O'quv jarayonini tashkil etish texnologiyasi	SHakl: interfaol mashg'ulot: guruhlarda ishlash. Metod: Aqliy hujum, og'zaki bayon, tushuntirish, matn bilan ishlash, fikr almashuvi. Vosita: - darslik; kompyuter texnikasi; sinf xonasini guruhlarda ishlash uchun tayyorlash; Usul: jadval, diagramma, mashqlar. Nazorat: kuzatish, nazorat savollari, nazorat mashqlari. Baholash: rag'batlantirish, o'z-o'zini baholash, ball tizimi.
Kutiladigan natijalar	O'qituvchi: Mavzu asosida to'laqonli ma'lumot berib, o'quvchilar bilimini oshiradi. Mashg'ulotda qo'llanilgan metodlar, mustaqil ish bo'yicha tarqatma materiallar asosida mavzu bo'yicha o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalarini oshiradi. O'quvchi: Mavzu bo'yicha yangi bilimlar egallaydi. Mavzuning asosiy mazmuni bo'yicha mustaqillikning qadriga etish, ozodlik, hurlik, vatanparvarlik hislari kuchayadi.
Kelgusi rejalar	O'qituvchi: Navbatdagi mavzu uchun mashg'ulot materiallarini qaytadan ko'rib chiqish, mashg'ulotni tahlil qilish, mavzuni qo'shimcha ma'lumotlar bilan boyitish, mashg'ulot metodikasi va texnikasiga o'zgartirish kiritish, keyingi mashg'ulotni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish. O'quvchi: “Inson va fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari” mavzusini o'qib, asosiy ma'no-mazmunini konspekt qilish, asosiy tushunchalarni eslab qolish, savol-javobga tayyorgarlik ko'rish, qo'shimcha manbalarni izlab topish

Mashg'ulot bosqichlari.

Bosqichlar	Mazmuni	Metodlar	Vahti
1-bosqich Tashkiliy qism	Salomlashuv. Mashg'ulotning borishi haqida tushuncha berish.	og'zaki muloqot	3 daqiqa
2-bosqich Motivatsiya	O'qituvchining mavzu asosida kirish so'zi. Mashg'ulot mavzusi va mazmunini o'quvchilar bilan hamkorlikda aniqlab olish.	"Aqliy hujum" asosida	4 daqiqa
3-bosqich Mavzu va amaliy ish bayoni	O'qituvchining mavzu mazmuni to'g'risidagi suhbat-ma'ruzasi – jamoaviy ish va guruhlardagi mustaqil ish	Og'zaki bayon, tushuntirish, savol-javob, matn bilan ishlash, guruhlar taqdimoti	15 daqiqa
4-bosqich Mustahkamlash	Mavzu bo'yicha o'quvchilarni bilimlari, tushunchalarini guruhda, juftlikda, yakka tartibdagi faoliyatlari orqali aniqlash	"Bingo" o'z-o'zini baholash	20 daqiqa
5-bosqich Mashg'ulot yakuni va mustaqil ish uchun topshiriq	Fikr almashuvini o'tkazish, mashg'ulotni yakunlash, mustaqil ish uchun topshiriq berish	Fikr almashuvi	3 daqiqa

№	Dars bosqichlari	Vahti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'quvchilarni o'tilgan mavzularni takrorlash asosida yangi mavzuga tayyorlash bo'yicha savollar	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bo'yicha suhbat o'tkazish	10 daqiqa
4	Berilgan vaziyatlarni yangi berilgan bilimlar asosida amaliyotga bog'lash uchun FSMU texnologiyasidan foydalanish.	15 daqiqa
5	Dastlabki guruhlariga qaytish	5 daqiqa
6	Guruhlararo savol-javob	6 daqiqa
7	O'quvchilarni baholash va darsni yakunlash	5 daqiqa

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism – 3 daqiqa. Salomlashish, davomatni aniqlash, o'quvchilarni darsga hozirlash, o'quvchilarni guruhlariga bo'lish uchun sinfga kirishda ularga turli raqamlar yoki tasvirlar tushirilgan kartochkalar beriladi va ushbu raqam yoki tasvir qo'yilgan stol atrofiga o'tirish taklif etiladi.

II. O'quvchilarni o'tilgan mavzularni takrorlash asosida yangi mavzuga tayyorlash bo'yicha savollar – 5 daqiqa

- Ob'ektiv huquq nima? (huquq normalarining yig'indisi)
- Sub'ektiv huquq nima? (ma'lum bir shaxs yoki guruhga tegishli bo'lgan huquq – sub'ektiv huquq deyiladi)

- Axloq bilan huquq tushunchalari qanday farqlanadi? (Axloq – kishining jamiyatdagi xulq-atvorini tartibga soluvchi talab va qoidalar yig‘indisi, huquq esa davlat tomonidan o‘ratilgan va u tomonidan himoya qilinuvchi barcha uchun majburiy bo‘lgan xulq-atvor qoidalar tizimi)

- Huquq qanday funksiyalarni bajaradi? (tartibga solish, qo‘riqlash, tarbiyalash).

Savol-javob tugagach o‘qituvchi tomonidan yangi mavzu e‘lon qilinadi.

III. Yangi mavzu: Huquq normalari.

Yangi mavzuni o‘tish rejasi:

1. Yangi mavzu bo‘yicha suhbat o‘tkazish - 10 daqiqa.

A) Huquq normasi.

Davlat tomonidan o‘rnatiladigan va ma‘qullanadigan, muayyan shaklda ifodalanadigan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan umummajburiy xulq-atvor qoidalari. Bu qoidalarni buzish yuridik javobgarlikka olib keladi. Huquqiy normalar ularda mustahkamlangan qoidalarining xarakteriga qarab *huquq va vakolat beruvchi, majburiyat yuklovchi va ta‘qiqlovchi (man qiluvchi) normalarga* ajratiladi. 1) Huquq sub‘ektiga muayyan harakatlarni sodir etish mumkinligini ko‘rsatuvchi huquqiy normalar *huquq va vakolat beruvchi normalar* deyiladi. Masalan, O‘z.R Konstitutsiyasining 29-moddasiga binoan, “Har kim fikrlash, so‘z va e‘tiqod erkinligi huquqiga ega...” 2) Huquq sub‘ektiga muayyan harakatlarni sodir etish lozimligini (shartligini) ko‘rsatuvchi huquqiy normalar *majburiyat yuklovchi normalar* deyiladi. Masalan, O‘z.R Konstitutsiyasining 51-moddasida “Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig‘imlarni to‘lashga majburdirlar” deyilgan va bu qoida majburiyat yuklash xarakteriga ega. 3) Huquq sub‘ektiga muayyan xatti-harakatlarni sodir etishni man qiluvchi normalar *ta‘qiqlovchi normalar* deb ataladi. Masalan, O‘z.R Konstitutsiyasining 58-moddasida mustahkamlab qo‘yilgan “...Davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamoat birlashmalari faoliyatiga aralashishiga, shuningdek jamoat birlashmalarining davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatiga aralashishiga yo‘l qo‘yilmaydi” degan qoida ta‘qiqlovchi norma hisoblanadi.

Bulardan tashqari, huquqiy normalar boshqa bir qator mezonlar asosida ham tasniflanadi. Jumladan, huquqiy normalar o'zida xatti-harakatni shakllantirishning mavhumligiga qarab *abstrakt (mavhum)* va *kazuistik normalarga*, gipotezada mustahkamlangan holatning faktik jihatlarini aniq yoki nisbiy ekanligiga qarab *aniq va nisbiy aniq normalarga*, gipotezaning hajmiga qarab *oddiy, murakkab va alternativ normalarga*, dispozitsiyaning aniqligiga qarab *mutlaq aniq, nisbatan aniq va blanket normalarga*, huquqiy tartibga solish usuliga ko'ra *imperativ va dispozitiv normalarga*, sub'ektlariga qarab *umumiy va maxsus normalarga*, harakatlanish hududiga qarab *umumiy harakat qiluvchi va mahalliy miqyosda harakat qiluvchi normalarga* bo'linadi. SHuningdek, huquqni qo'riqlovchi normalar sanksiyalarning aniqligiga qarab *mutlaq aniq va nisbatan aniq normalarga* ham bo'linadi. Huquq sohalarida esa huquq normasi xalqaro, konstitutsiyaviy, ma'muriy-huquqiy, fuqaroviy-huquqiy, jinoiy-huquqiy va b. turlarga ajratiladi. Huquq normalarining ichki tarkibi mantiqan quyidagilardan iborat: gipoteza – huquq normalarining qo'llanish sharti; dispozitsiya – yurish-turish, xulq-atvor qoidalari, huquq va majburiyatlar ifodasi; sanksiya – harakatning davlat – huquqiy nuqtai nazardan baholanishi, qonun buzilishi natijasida davlat tomonidan qo'llaniladigan huquq normalariga rioya qilishga majbur etuvchi chora.

B) Gipoteza.

Huquq normasida belgilanadigan qoida qanday sharoit va holatda kim tomonidan amalga oshirilishi ko'rsatiladi. Gipoteza huquq normasining bir qismi bo'lib, unda dispozitsiyada ko'rsatilgan qoidaning kuchga kirishi uchun zarur bo'lgan muayyan aniq hayotiy holatlar (voqea, harakat, holatlar) o'zining ifodasini topadi.

S) Dispozitsiya - (lotincha *dispositio*–joylashuv) – huquq normasining tarkibiy qismi bo'lib, unda gipotezada ko'rsatilgan holatlar mavjud bo'lganida huquq sub'ektlari rioya etishlari lozim bo'lgan xatti-harakat qoidasi (huquq va majburiyatlari) ifodalangan bo'ladi. D.ning *quyidagi turlari mavjud*: imperativ (aniq ko'rsatilgan, buyruq beruvchi); nisbiy belgilangan; blanket (havola etuvchi); tavsiflovchi (to'liq bayon etilgan) va b.

Dispozitsiya jinoyat huquqida maxsus qism normalari – ijtimoiy xavfli qilmish belgilarining ifodalanuvchi qismi. D.da alohida jinoyatlar va shu jinoyatlarning ta’rifi beriladi. Jinoyat huquqiy normalarda d.ning quyidagi to‘rt turi: oddiy, tasvirlov, blanket va havolali turlari nazarda tutiladi. Oddiy d.da jinoyat tarkibining belgilari ifodalanmasdan, jinoyatning umume’tirof etilgan nomi ko‘rsatiladi. Bunday d.da jinoyatning belgilari ochib ko‘rsatilmaydi. Bunday d.lar «nomlanuvchi d.» deb ham ataladi. Tasvirlovchi d.da muayyan jinoyat turining belgilari ko‘rsatiladi. Mas., firibgarlik jinoyatini ifodalovchi JK 168-m.da jinoyatning nomi ko‘rsatilmagan, uning asosiy belgilari ham ko‘rsatib berilgan: firibgarlik, ya’ni aldash yoki ishonchni suiiste’mol qilish yo‘li b-n o‘zganing mulkini yoki mulkiy huquqini qo‘lga kiritish. Blanket d.da muayyan jinoyatning belgilari boshqa huquq sohasiga oid qonunlar yoki me’yoriy hujjatlar asosida aniqlanadi. Mas., JK 200-m. d.si, unda veterinariya yoki zootexnika qoidalarini buzish hayvon yoki parrandalar epidemiyasi (epizotiyasi) tarqalishiga, ularning yalpi qirilib ketishiga yoki boshqa og‘ir oqibatlar kelib chiqishiga sabab bo‘lsa ushbu m. b-n javobgarlikka tortishga asos bo‘ladi, deyilgan. Veterinariya qoidalari va zootexnika qoidalari O‘zR qonunlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari yoki tegishli vazirliklarning yo‘riqnomalarida belgilab qo‘yilishi mumkin. Jinoyatning obektiv tomonini aniqlashda ushbu qoidalar ko‘rsatilgan hujjatlarga murojaat qilinadi va qaysi qoidalar buzilganligi aniqlanadi. Blanket d. qonunlarni ixchamlashtirish va amalda qo‘llanishini osonlashtirishda katta ahamiyatga ega. Havolali d.da normaning mazmunini aniqlash uchun kodeksning boshqa bir normasiga murojaat etiladi. Mas., JKning 100– m.da zaruriy mudofa chegarasidan chetga chiqib, qasddan odam o‘ldirish jinoyati berilgan. Zaruriy mudofaa holatini aniqlash uchun JKning 37– m.ga murojaat qilish lozim. (34)

D) Sanksiya.

SANKSIYA – (lot. sanctio — qat’iy qaror) — qat’iy chora va tadbir. Huquqda sanksiya to‘rt asosiy turga: 1) jinoiy-huquqiy, 2) ma’muriy-huquqiy, 3) ijtimoiy-huquqiy, 4) mulkiy sanksiyalarga bo‘linadi.

Sanksiya dispozitsiyada ko‘rsatilgan qoidani buzgan shaxsga nisbatan davlat

organi qo'llashi mumkin bo'lgan ta'sir chorasini belgilaydi. Sanksiya huquq normasining bir qismi bo'lib, unda dispozitsiyada ko'rsatilgan talablarni bajarmaganlik uchun berilishi mumkin bo'lgan jazoning yoki tavsiya etilgan harakatni sodir etganlik uchun rag'batlantirishning turi va o'lchovi ifodalangan bo'ladi

2. Guruhlarga mavzuga oid vaziyatli masalalar berish (1 ilova).

Berilgan vaziyatlarni yangi berilgan bilimlar asosida amaliyotga bog'lash uchun FSMU texnologiyasidan foydalanish - **15 daqiqa.**

Guruhlarga berilgan vaziyatlar bo'yicha FSMU texnologiyasi asosida fikr bildiring deb topshiriq beriladi.

F- fikringizni bayon eting

S- bu fikrga kelish sababini ko'rsating

M- ko'rsatgan sabablaringizni misol bilan isbotlang

U- Fikrlarni umumlashtiring.

O'quvchilar berilgan topshiriqlarni daftariga yozib oladi.

Guruh a'zolari o'zaro muhokamadan so'ng bir qarorga kelib, guruh a'zolaridan bir kishi chiqib taqdimot qiladi.

IV. O'quvchilar bilimini baholash va baholarni e'lon qilish – 3 daqiqa.

O'quvchilarni baholashda sinf doskasi guruhlar soniga qarab bo'linadi va o'quvchilar ishtirokiga qarab baholab boriladi. Dars oxirida guruhlar tomonidan to'plangan ballar umumlashtiriladi.

V. Uyga topshiriq berish, darsni yakunlash – 4 daqiqa.

Uyga vazifa: O'rganilgan bilimlar asosida krossvord tayyorlash.

2. 2. Huquqiy – axloqiy talim –tarbiyani takomillashtirish masalalari

Bugungi kunda huquqiy demokratik davlat haqida ko'p gapirilyapti. Bunday davlatning fuqarolari esa huquqiy madaniyatli bo'lmog'i uchun huquqiy axloqiy tarbiyaga ega bo'lishlari lozim. Fuqarolarni jumladan yoshlarni huquqiy axloqiy jihatdan tarbiyalash uchun bu tarbiyaning tub mohiyatini anglab etishimiz darkor. Umumiy ta'lim jamiyat rivojida tayanch bo'lsa, huquq axloqiy tarbiya har qanday mamlakatda xalqning erkin yashashi, farovon turmush kechirishi, xoxish – irodasini hech qanday to'siqlarsiz, amalga oshirishi, ezgu maqsad va niyatlarni amalga oshirishda muhim kafolatdir.

Huquqiy axloqiy ta'lim - tarbiyaning asosiy vazifasi barcha o'quv muassasalaridagi tinglovchilarga qonunlarimizni, birinchi navbatda, Konstitutsiyani chuqur o'rgatish, va hurmat ruhini shakllantirish bilan birga axloqiy fazilatga ega, insonparvar shaxsni, komil insonni tarbiyalab, kamol toptirishdir. Shu nuqtai –nazardan qaraganda hozirgi kunda huquqiy axloqiy ta'lim - tarbiyaning ahamiyati muhimdir. Huquqiy axloqiy ta'lim - tarbiya asosida o'z vatanini sevgan, hayotda ezguliklar sari intila oladagan va o'z huquqlarini hamda burchlarini bilgan jamiyat a'zolarigina ijtimoiy hayotning hamma sohalarida ongli ravishda mehnat qiladi va ularning yaratuvchanlik faoliyati ancha yuqori bo'ladi. Fuqarolarning axloq va huquq qoidalarini yaxshi bilishi va ularga amal qilishidan faqat shaxslar manfaatdor bo'lmay, balki davlat ham manfaatdordir.

Sobiq ittifoq davrida aholining huquqiy axloqiy ta'lim - tarbiyasi qancha past darajada bo'lsa, bu shunchalik ular uchun qulay edi. Ammo mustaqillik sharoitida taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan etuk odamlar hal qilishi ravshan bo'lib qoldi. 1 - Prezidentimiz I.A. Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 6- sessiyasida: **«Aholining huquqiy tarbiyasini tubdan yangilash, uning huquqiy madaniyat darajasini oshirish, huquqiy axborotning keng maydonini yaratib berish – huquqiy davlatning qaror topishida muhim yo'nalishidir»** deb ta'kidlaganlari ham shu boisdandir.

Bu ko'rsatkichlar nafaqat yuridik o'quv muassasalarida balki butun ta'lim tizimida huquqiy axloqiy ta'lim - tarbiyani yaxshilash, takomillashtirishni nazarda tutadi.

Huquqiy va axloqiy ta'lim – tarbiya murakkab va ko'p qirrali hodisadir, uni bir yoqlama ta'riflash qiyin. Huquqiy va axloqiy ta'lim - tarbiya – bu shaxsga nisbatan huquqiy va axloqiy ongini, huquqiy va axloqiy ko'rsatkichlarni, qonunga itaotkorlik xulq – atvor ko'nikmalarini va odatlarini shakllantiruvchi, jamiyat taraqqiyotining ma'naviy vositalarini ta'minlovchi, o'zaro bog'langan, uyushgan bir tizimli, aniq maqsadni ko'zlagan holdagi ta'sir ko'rsatilishidir.

Shuni unutmaslik kerakki, huquqiy va axloqiy ta'lim - tarbiya berish huquqiy ta'limdangina iborat emas. Maktablarda huquqiy va axloqiy tarbiya tizimi va vakili o'quvchilarning huquqiy va axloqiy tarbiyasiga har tomonlama yondoshishdan kelib chiqadi. Xuddi shu yerda huquqiy va axloqiy tarbiyaga elementar yondoshishdan voz kechish zarurligini aytib o'tishimiz zarur.

Huquqiy va axloqiy ta'lim – tarbiya berishni asosiy qonunimiz Konstitutsiyani o'rgatishdan boshlashimiz zarur. Shundagina yosh avlod axloqiy fazilatlariga ega, qonunlarni hurmat qiladigan shaxs bo'lib kamol topadi. Bu borada Prezidentimiz I.A.Karimovning 2001-yil 4-yanvardagi farmoyishi o'rinlidir.

Farmoyishga asosan 2001-yil 1-sentyabrdan e'tiboran Respublikada uzluksiz talim tizimida bog'chadan tortib oliy ta'limning bakalavr bosqichigacha O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish boshlandi.

Ushbu farmoyishdan kelib chiqib, maktabgacha ta'lim muassasalarida Konstitutsiyani o'rganish bo'yicha «Konstitutsiya saboqlari» maxsus kursi o'qitilmoqda. Ushbu kursni o'qitish orqali bolani huquqiy va axloqiy jihatdan ham tarbiyalab boriladi. Boshlang'ich sinflarda «Konstitutsiya alifbesi» dasturi ishlab chiqildi va shu o'quv dasturi orqali dars o'tilmoqda. Boshlang'ich ta'limda bolaning yosh xususiyatini etiborga olgan holda barcha fanlar tarkibida huquqiy va axloqiy tarbiyani ham shakllantirib borish darkor. Masalan ona – tili darsida qoida tushunchasi, kun tartibi, maktab mulki, ota – onani hurmat qilish, ota –

onaning farzandlar oldidagi burchi, vatanni sevis, tabiatni asrab avaylash kabilar o'rgatiladi. 1-4 sinf o'quvchilari imkon boricha Konstitutiyaning eng asosiy qoidalarini yoddan bilib olishlari taminlanishi kerak. Chunki bu yoshda bolalarning xotirasi juda o'tkir va mustahkam bo'lib, yodlagan narsalari umrbod esda qolishi mumkin.

5-7 sinflarda **«Konstitutiya olamiga sayohat»** darsi kiritilgan . Bu darsga 17-soat vaqt ajratilgan. Bu darsda o'quvchilar Konstitutiya haqida tushuncha, odob – axloq, yaxshi inson tushunchasi, davlat ramzlari, mulk tushunchasi, inson va fuqorolarning erkinliklari, huquqlari, burchlari haqidagi boshlang'ich malumotlarga ega bo'lish orqali huquqiy va axloqiy tarbiyasi ham rivojlanadi.

8- sinf o'quvchilari uchun **«O'zbekiston davlati va huquqi asoslari»** fani o'qitiladi. Ushbu fanni o'qitishdan maqsad – o'quvchilarga davlat va huquq to'g'risida yaxshi tasavvurlarni, O'zbekiston davlatining o'tmishdagi huquqiy munosabatlari va bugungi kun to'g'risida yaxlit tasavvurlarni, huquq prinsiplari va me'yorlari, davlat va huquqning demokratik jamiyat ko'rinishidagi, ijtimoiy jarayonlarni boshqarishdagi roli, qonunchilik xususidagi belgilar tizimini berishdan iboratdir.

O'rta maktabning 9- sinfida **«Konstitutiya huquq asoslari»** fani o'qitiladi. O'quvchilar 5-7 sinflardagi Konstitutiya haqidagi boshlang'ich bilimlarga ega bo'lishgan edi. Shu bilimlarga tayangan holda, 9- sinfda Konstitutiya normalari haqida to'liq malumotga ega bo'ladilar.

Ushbu darslikning bir mavzusida amaldagi qonun hujjatlari yordamida hal qilinishi mumkin bo'lgan turli tuman vaziyatlarni o'quvchilarga havola etiladi.

VAZIYAT

Pedagogik kengash yig'ilishida maktab direktori o'qituvchilarning e'tiborlariga quyidagi ma'lumotni aytib o'tdi: 6 nafar ota-ona tomonidan farzandini ingliz tili chuqurlashtirib o'tiladigan 5- sinfga qabul qilinishini so'ralgan ariza berildi.

Sinfga faqat bir nafar o'quvchini qabul qilish imkoniyati bor. Sizlar qanday fikrdasizlar, kimni qabul qilamiz?

Ariza bergan o'quvchilarning ijtimoiy ahvoli va tabaqalashtirilgan sinfga qabul qilinishni asoslovchi holatlari:

1 - o'quvchi: boshqa tumanda istiqomat qiladi, maktab yonida uning buvisi yashaydi, qolaversa, u tabiiy fanlardan a'lo baholarga o'q'iydi.

2 - o'quvchi: maktab joylashgan hududda yashaydi, uning mahalladagi barcha do'stlari ana shu sinfda ta'lim olishganligi sababli shu maktabga o'tishga qaror qilgan.

3 - o'quvchi: boshqa shahardan kelgan, uning ota- onasi diplomat, shu sababli o'quvchi ingliz tilini mukammal biladi, qolaversa, uch oydan so'ng ular boshqa davlatga ko'chib ketishadi.

4 - o'quvchi: ikkinchi yilga qolgan, 4 fanni "qoniqarsiz" bahoga o'zlashtiradi, qolaversa, ichki ishlar bo'limida ro'yxatda turadi, biroq, maktab joylashgan hududda istiqomat qiladi.

5 - o'quvchi: qishloqdan ko'chib kelgan, u erda maktabda esa ingliz tili o'qitilmagan, maktab joylashgan hududda istiqomat qiladi, ko'p vaqtini bekor o'tkazadi.

6 - o'quvchi: bollikdan 2-guruh nogironi, bolalar tserbral paralichi (BTSP) tashxisiga ega, fanlarni "4" va "5" baholarga o'zlashtiradi, yolg'iz onaning qo'lida tarbiyalanadi, shu bilan birga maktab joylashgan hududda istiqomat qiladi.

Sizningcha, ingliz tiliga ixtisoslashtirilgan sinfga qaysi o'quvchi qabul qilinadi?

O'quvchilarga tavsiya etiladigan manbalar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining " Fuqarolarni ijtimoiy muhofaza lash to'g'risida" gi Qonuni.

3. Ta'lim muassasalarining "Tabaqalashtirilgan ta'limni tashkil etish to'g'risida" gi Nizomi.

O'quvchilar uchun ko'rsatmalar:

1. Keys mohiyatini etarlicha anglab oling.
2. Berilgan manbalarga tayangan holda muammoning echimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlang.
3. Aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko'proq dahldor bo'lgan omil (yoki ikkita omil) ni ajrating.
4. Ana shu omillar asosida echimni asoslashga urining.
5. Echimni bayon eting.

O'quvchilar Konstitustiyaviy huquq asoslarini o'rganib, yo'l qo'yiladigan va taqiqlanadigan qoidalarining bir biridan farqlarini o'rganadi, o'z huquq va manfaatlarini himoya qilish usullarini, vositalarini yaxshiroq biladigan, eng muximi shundaki, agar qonunga rioya etgan va umum qabul qilingan axloq normalaridan bir qadam ham cheklanmagan holda ish tutilganda adolat hamisha tantana qilishni o'rganadi.

Ushbu darsliklarning o'tilishi huquqiy va axloqiy tarbiyani bolaning yoshligidan berilishini ko'rsatadi. Konstitustiyani o'rgatishda va shu asosda huquqiy va axloqiy tarbiyani shakllantirishda bolaning yosh xususiyati hisobga olinib, o'quv dasturlari ishlab chiqilgan.

Ushbu darsliklarning qanday, o'quvchilarda qay darajada qiziqish uyg'ota olishi, ularning huquqiy va axloqiy tarbiyasiga qanchalik tasir o'tkaza bilishi o'qituvchining mahoratiga bog'liq, xolos.

Huquqiy va axloqiy tarbiyani faqat huquqiy talim asosida emas, balki tarix, adabiyot, milliy istiqlol g'oyasi darslari orqali ham amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Huquqiy va axloqiy tarbiya samaradorligini oshirishda o'qituvchilarning o'ziga xos o'rni bo'lib, ularga ham ijodiy izlanishda bo'lish taqozo etiladi. Bugungi kunda huquqiy va axloqiy tarbiyani shakllantirishda azaldan

qo'llanayotgan muayyan shakl va usullar zamon talabiga javob bermay qo'ydi. Ularga og'zaki bayondan ko'ra bevosita jonli muloqot, savol- javob ma'qul bo'lib, bu ularni qiziqtiradigan mavzular asosida bo'lishini xoxlashadi. O'quvchilarga dars jarayonida erkin fikrlashlari va mulohaza yuritishlari uchun qulay vaziyat va sharoitlar yaratib berish maqsadga muvofiqdir. O'qitishning turmush bilan bog'lanishini kuchaytirish uchun markaziy va mahalliy ro'znoma, radio, televideniya da berilgan materiallardan keltirilgan misollardan foydalanish ham o'quvchilarning huquqiy va axloqiy tarbiyasiga ijobiy tasirini o'tkazadi.

Huquqiy va axloqiy tarbiya samaradorligi avvalo maqsadga erishish darajasiga bog'liq. Ushbu maqsadga erishish uchun huquqiy va axloqiy tarbiyaga kompleks yondoshishi kerak. Bunday tarbiya quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Huquqiy – axloqiy tarbiyaning mafkuraviy – siyosiy va mehnat tarbiyasi bilan o'zaro bog'liqligi;
- O'quvchilarning turar joyi va o'quv joyida huquqiy va axloqiy tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan tadbirlarni rejalashtirish va o'tkazish;
- O'quv tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda huquqiy va axloqiy tarbiyani amalga oshirish va huquq va axloqqa zid harakatlarning oldini olish bo'yicha ishlarni o'quvchilarni dam olish va yashash sharoitlarini yaxshilash orqali takomillashtirib borish;
- O'quvchilar huquqiy va axloqiy ongini oshirishda ular o'rtasida namunaviy jamoat tartibi, otaliqqa olish, faolliklari uchun musobaqa va harakatlardan foydalanish;
- Oilani, o'quv, mehnat jamoalarining huquqiy va axloqiy tarbiya ta'sirini muvofiqlashtirilib, birgalikda faoliyat yuritish;
- Huquqiy – axloqiy tarbiya jarayoni samaradorligini o'rganish, boyitish va ijobiy tajribalarni kengroq tarqatish hamda ko'zlangan tadbirlarni bajarilishi yuzasidan nazorat o'rnatish.

Har qanday tarbiyaviy ish tarbiyalanuvchining o'zining shaxsiy axloqiy ichki sharoitlari harakati bilan samaralidir. O'zbekiston davlat va huquqi fanini o'qitishda ta'limning faol interaktiv metodlarini qo'llash natijasida yuqori

maqsadlarga erishishi mumkindir. Noan'anaviy o'qitish yordamida quydagilarga erishish mumkin:

- O'quvchilar ongi va tafakkurida huquqiy g'oya va qarashlarni ko'r-ko'rona yodlamaslik holatini bartaraf etish;
- O'quvchilarni erkin muloqat holatiga chorlash orqali mustaqil fikrlash ko'nikmasini hosil qilish.

O'quvchilarning huquqiy va axloqiy ta'lim - tarbiyasi bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib, bu haqda ko'proq tadqiqotlar olib borishi bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

XULOSA

Mustaqilligimizning ilk kunlaridanoq oliy maqsadimiz huquqiy demokratik davlat qurish yo'lidan olg'a qadamlar bilan bormoqdamiz. Bunday davlatning erkin fuqarolari huquqiy va axloqiy jihatdan yuqori darajadagi tarbiyaga ega bo'lishlari shart. Shuning uchun ham bu boradagi ishlar davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Har bir o'quvchi hayotida huquqiy va axloqiy normalar va qoidalar, qonunlar yuqori o'rin tutishini hamda huquqiy ta'lim yordamida targ'ib etishimiz, ularning ongi va tafakkuriga singdirishimiz darkor. Bunda quydagilarga e'tibor berish zarur:

- Ularning o'zlashtirish darajasi va holatiga qarash;
- Ular ongi va tafakkuriga tushunarli tarzda etib borishlikni ta'minlash;
- Huquqiy ta'lim-tarbiya g'oyalari hamda bilimlarini singdirishda ular hayoti va dunyoqarashiga mos keladigan misol va vaziyatlardan kengroq foydalanish;

Bugungi kunda ta'lim tizimining isloh etish, uni modernizatsiya qilish masalasi kundalik hayotimizning muhim muammolaridan biri hisoblanib kelmoqda. Umumiy o'rta ta'lim tizimini yangi o'quv adabiyotlar bilan boyitish, metodik ishlanmalarni ishlab chiqish, pedagogik xodimlarning o'quv faoliyatini samarali tashkil etish, bularning barchasi pedagogik texnologiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq omillardir. Har bir fan o'qituvchisi o'zi o'qitayotgan fani uchun javobgar va ma'suldir. Huquqshunoslik fanlarini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchi shaxsi, dunyoqarashi hamda tafakkurini o'zgartirish muammosi oldimizda ko'ndalang turmoqda.

Asosiy qonunimiz Konstitutiya asosida huquqiy va axloqiy tarbiyani shakllantirish va takomillashtirish masalalarini 1- Prezidentimiz bevosita 2001 yil yanvarda qabul qilgan «O'zbekiston Respublikasi Konstitutiya'sini o'rganishni tashkil etish to'g'risida» gi farmoyishi mazkur masalaning davlat siyosatining ustivor yo'nalishiga aylanganligidan dalolat beradi. Lekin shunga qaramasdan ta'lim muassasalaridagi tarbiyachilar va boshlang'ich sinf o'qituvchilarining

huquqdan bexabarligi, huquqiy savodxonligi yetarli emasligi tufayli o'quvchilarga dasturda belgilangan bilimlarni etkazib bera olishmayapti. Bundan tashqari bazi maktablarda 5-7 sinflardagi «Konstitutiya olamiga sayohat» darsini tarix o'qituvchilari yoki nomutaxassis o'qituvchilar olib borishmoqda. Bu esa o'z-o'zidan huquqiy axloqiy tarbiyani takomillashtirish masalalarini echishga, bu boradagi ishlarning sust borishiga sabab bo'lmoqda. Shu bois barcha oliy o'quv yurtlarida «O'zbekiston Respublikasi Konstitutiya o'qitish metodikasi», shuningdek «O'zbekiston Respublikasi Konstitutiya o'rganish» kursi o'qitilmoqda.

Barcha maktabgacha talim muassasalarida tarbiyachilar va boshlang'ich sinf o'qituvchilari ushbu kurslarni o'qishlari lozim. Yuqori sinflarda esa albatta huquq mutaxassisligi bor o'qituvchilar dars olib borishlari kerak.

Shundagina biz yosh avlodni huquqiy va axloqiy jihatdan etuk, komil inson bo'lib etishishlariga erishishimiz mumkin. Yosh avlodni, kelajagimiz yorituvchilarini tarbiyalashda o'zimizning huquqiy bilimlarimizni, axloqiy fazilatlarimizni ularning ongiga singdiraylik va yosh avlodni tarbiyalashda ajdodlarimiz kabi kuch-qudratimizni va bilimimizni ayamaylik!

Huquq - davlat tomonidan o'rnatilgan va u tomonidan himoya qilinadigan barcha uchun majburiy bo'lgan xulq-atvor qoidalarining tizimi.

Axloq - kishining jamiyatdagi xulq-atvorini tartibga soluvchi talab va qoidalar yig'indisi.

Zamonaviy texnika-texnologiya rivojlanishi, axborot oqimining jadallashuvi ta'lim-tarbiya ishlarini ham zamonga mos holda takomillashtirishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, ta'lim muassasalarida multimedia vositalaridan oqilona foydalanish, dars soatlarini interaktiv o'yinlar asosida tashkil etish saboqlar samaradorligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Asosiy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch.-T.; "Ma'naviyat", 2008.

Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – T., "O'zbekiston", 2014.
2. Qaraqalpaqstan Respublikasi Konstitutsiyasi-N., "Qaraqalpaqstan", 2014.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Bazarbaev J., Dauletova Q. A'depnama. Nukus, Bilim. 1994
2. O.Karimova va boshqalar: O'zbekiston davlati va huquqi asoslari: Darslik.–T., 2014.
3. Sultanov X., Qarshi'baev M. Vatan tuyg'i'si', 5-klass, T., 2014
4. Sultanov X., Qarshi'baev M. Vatan tuyg'i'si', 6-klass, No'kis, Bilim, 2014
5. O'zbekiston davlati va huquqi asoslari. 8-sinflar uchun darslik, Toshkent., 2014y.
6. Milliy g'oya` targ'ibot texnologiyalari va atamalar lug'ati. T., Akademiya, 2014
7. Milliy g'oya` nazariy manbalar. T., Akademiya, 2014
8. Konstitutiya a'lemine sayahat, 5-klass, No'kis, Bilim, 2014
9. Konstitutiya a'lemine sayahat, 6-klass, No'kis, Bilim, 2014
10. Konstitutiya a'lemine sayahat 7-klass, No'kis, Bilim, 2014
11. Ma'mleket ha'm huqi'q tiykarlari', 8-klass, No'kis, Bilim, 2014
12. O'zbekistan Respublikasi Konstitutsiyali'q huqi'qi, 9-klass, No'kis, Bilim, 2014

IV. Elektron ta'lim resurslari

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat Hukumati portali: www.gov.uz
2. www.ziyonet.uz
3. www.edu.uz
4. Infocom.uz elektron jurnali: www.infocom.uz
5. www.tdpu.uz.
6. <http://learnen'lishkids.britishcouncil.org/en/>

8-sinflar uchun *"Davlat va huquq asoslari"* fanidan bir soatlik dars ishlanmasi

Dars mavzusi: Axloq va huquq.

1. Darsning maqsadi:

- a) **ta'limiy maqsad** — o'quvchilarni axloq va huquq tushunchalari bilan tanishtirish;
- b) **tarbiyaviy maqsad** — bolalarni atrofdagilarning huquqlarini hurmat qilishga o'rgatish;
- c) **rivojlantiruvchi maqsad** — o'quvchilarning kundalik hayotda yuz beradigan voqea-hodisalarni tahlil etish va xulosa chiqarish ko'nikmasini rivojlantirish.

Dars metodlari: "Sayohat", "To'g'risini top", "Mozaika".

Dars materiallari va jihozlari:

- "Davlat va huquq asoslari" fani darsligi;
- me'yoriy materiallar;
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

Qo'shimcha manbalar:

- atama va tushunchalar, savol va topshiriqlar yozilgan tarqatma materiallar;
- mavzuga oid rasmlar.

Darsning texnlik jihozlari:

multimedia vositalari.

Darsning asosiy atama va tushunchalari:

- huquq;
- axloq;
- obyektiv huquq;
- subyektiv huquq.

2. Darsning borishi:

1. Tashkiliy ishlar.

O'qituvchi o'quvchilar bilan salom-lashib, davomatni aniqlaydi (3 daqiqa).

2. O'tilgan mavzuni takrorlash. Bunda "Sayohat" metodidan foydalaniladi (7 daqiqa). O'quvchilar oldingi darsda o'tilgan huquqshunoslikka oid atamalarni yodga oladilar. 6 o'quvchi doskaga chiqariladi. Birinchi o'quvchi huquqshunoslikka oid bir atama aytadi, ikkinchi o'quvchi esa unga o'zi ham bitta atama qo'shadi. "Sayohat" shu tarzda davom etib, oltinchi o'quvchi 6 ta atama aytadi. Kim adashib ketsa yoki noto'g'ri aytsa, "Sayohat poezdi"dan tushib qoladi. Adashmay, "Rag'bat" manziligacha yetib borgan o'quvchiga baho qo'yiladi.

Past o'zlashtiruvchi o'quvchilarga "To'g'risini top" metodidan foydalangan holda topshiriq beriladi. Ular raqamlarda berilgan tushunchalarning harflar vositasida belgilangan ta'rifini to'g'ri topishlari va joylashtirishi kerak. (*Jadvalga qarang*).

3.Yangi mavzuni yoritib berish (13 daqiqa).

Mavzu: Axloq va huquq uyg'unligi.

O'qituvchi, avvalo, huquq va axloq tushunchalarining ilmiy ta'rifini batafsil sharhlaydi.

Proyektor yordamida doskada ushbu tushunchalarning ta'rifi paydo bo'ladi:

Axloq	Huquq
Axloq - (arab. xulqning ko'pligi; lot. moralis- hulq-atvor) - ijtimoiy ong shakllaridan biri. Axloq-kishilarning tarixan tarkib topgan xulq - atvori, yurish turishi, ijtimoiy va shaxsiy hayotdagi o'zaro, shuningdek, jamiyatga bo'lgan munosabatlarini tartibga solib turuvchi barqaror, muayyan norma va qoidalar yig'indisi.	Huquq - davlat tomonidan o'rnatiladigan va qo'riqlanadigan, mamlakat aholisining umumiy va shaxsiy manfaatlarini ifodalovchi va ijtimoiy munosabatlarni davlat tomonidan tartibga solish vositasi sifatida amal qiluvchi umummajburiy xulq-atvor qoidalar tizimidir.

O'qituvchi mamlakatimizda har bir tuqaroning huquq va burchlari Asosiy Qonunimizda belgilab qo'yilganini, axloq me'yorlari esa jamiyatimizda uzoq yillar davomida milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlar negizida shakllanganini ta'kidlaydi. O'quvchilar huquq va axloq tushunchalarining o'zaro uyg'un va chambarchas ekanini hayotiy misollar asosida bilib oladilar.

O'qituvchi darslikdagi "Huquq funksiyalari" jadvalini tushuntiradi va huquqning tartibga solish, qo'riqlash va tarbiyalash funksiyalariga alohida to'xtaladi.

4.Mustahkamlash.

O'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun "Mozaika" o'yini o'tkaziladi (10 daqiqa). Buning uchun sinf 6 guruhga bo'linadi. O'quvchilarga huquq va axloqqa oid misollar yozilgan mozaikalar tarqatiladi. Belgilangan vaqt mobaynida ularni birinchi bo'lib yiqqan guruh g'olib bo'ladi.

5.Dars yakuni.

O'quvchilar bilimi savol-javoblar asosida baholanadi (10 daqiqa). O'qituvchi ularga quyidagi savollar bilan murojaat qiladi:

1. Maktabda qanday qoidalarga rioya etishingiz shart? Bu qoidalar barcha uchun majburiymi? Nima uchun? Oilangizda qanday qoidalar mavjud? Ular nima uchun zarur?
2. Do'stlaringiz bilan munosabatda qanday qoidalarga rioya etasiz? Sizningcha, bu qoidalar qachon vujudga keladi?
3. Sanab o'tilgan qoidalarining bajarilishini nazorat qilish kimning zimmasida deb o'ylaysiz?

Qoidalar bilan "huquq" so'zi o'rtasida qanday bog'liqlik bor?

6. Uyga vazifa

Mavzu bo'yicha quyidagi savol va topshiriqlar beriladi (2 daqiqa):

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-moddasini yodlash.
2. Darslikdagi huquqiy vaziyat va mavzu so'ngidagi savollarga javob yozish.
3. Navbatdagi mavzu bilan tanishish.